

The decision of the shareholders of the "CLICK"  
Limited Liability Company approved by the  
minutes of the meeting No. 02-AO/2024 dated  
June 10, 2024

«CLICK»  
mas'uliyati cheklangan jamiyati  
ishtirokchilarining  
2024 yil 10 iyundagi 02-AO/2024- sonli  
yig'ilish bayonnomasi qarori bilan  
TASDIQLANGAN

Yig'ilish raisi  
Chairman of the meeting

 Azimov.I.U.

"CLICK"  
JOINT STOCK COMPANY  
CHARTER  
(NEW VERSION)

«CLICK»  
AKSIYADORLIK JAMIYATI  
USTAVI  
(YANGI TAHRIRDA)

Tashkent 2024

Toshkent- 2024 y.

## Table of Contents

|   |    |
|---|----|
| 1. GENERAL RULES  | 3  |
| UMUMIY QOIDALAR   | 3  |
| 2. LEGAL STATUS, POSTAL ADDRESS, AND EMAIL ADDRESS OF THE COMPANY   | 3  |
| JAMIYATNING YURIDIK MAQOMI, POCHTA MANZILI VA ELEKTRON POCHTA MANZILI                                     | 3  |
| 3. THE SCOPE (MAIN DIRECTIONS) AND PURPOSE OF THE COMPANY'S ACTIVITIES                                    | 5  |
| JAMIYAT FAOLIYATINING SOHASI (ASOSIY YO'NALISHLARI) VA MAQSADI  | 5  |
| 4. THE AMOUNT OF THE COMPANY'S CHARTER FUND, AND THE PROCEDURE FOR INCREASING AND DECREASING IT           | 10 |
| JAMIYAT USTAV FONDINING MIQDORI, UNI KO'PAYTIRISH VA KAMAYTIRISH TARTIBI                                  | 10 |
| 5. THE COMPANY'S SHARES, THEIR NOMINAL VALUE, THE PROCEDURE FOR THEIR PLACEMENT, AND THE ANNOUNCED SHARES | 11 |
| JAMIYATNING AKSIYALARI, ULARNING NOMINAL QIYMATI, ULARNI JOYLATIRISH TARTIBI VA E'LON QILINGAN AKSIYALARI | 11 |
| 6. THE RIGHTS AND OBLIGATIONS OF THE COMPANY'S SHAREHOLDERS   | 13 |
| JAMIYAT AKSIYADORLARNING HUQUQ VA MAJBURIYATLARI  | 13 |
| 7. DISTRIBUTION OF THE COMPANY'S PROFITS, DIVIDENDS, AND COVERING LOSSES                                  | 15 |
| JAMIYAT FOYDASINI, DIVIDENDLARNI TAQSIMLASH VA ZARARNI QOPLASH TARTIBI                                    | 15 |
| 8. ESTABLISHMENT PROCEDURE FOR THE COMPANY'S RESERVE AND OTHER FUNDS                                      | 17 |
| JAMIYATNING ZAXIRA FONDINI VA BOSHQA FONDLARINI TASHKIL ETISH TARTIBI                                     | 17 |
| 9. STRUCTURE OF THE COMPANY'S MANAGEMENT  | 17 |
| JAMIYAT BOSHQARUVINING TUZILMASI  | 17 |
| 10. THE GENERAL MEETING OF SHAREHOLDERS   | 18 |
| AKSIYADORLARNING UMUMIY YIG'ILISHI  | 18 |
| 11. THE COMPANY'S SUPERVISORY BOARD   | 21 |
| JAMIYATNING KUZATUV KENGASHI  | 21 |
| 12. THE COMPANY'S EXECUTIVE BODY  | 27 |
| JAMIYATNING IJROIYA ORGANI  | 27 |
| 13. REORGANIZATION AND LIQUIDATION OF THE COMPANY   | 30 |
| JAMIYATNI QAYTA TASHKIL ETISH VA TUGATISH   | 30 |
| 14. OTHER CONDITIONS  | 31 |
| BOSHQA XOLATLAR   | 31 |

## 1. GENERAL RULES

1.1. This Charter is established in accordance with the current legislation of the Republic of Uzbekistan, including the Law of the Republic of Uzbekistan "On Joint Stock Companies and the Protection of Shareholders' Rights" (No. O'RQ 370 dated 06.05.2014) and other normative legal documents of the Republic of Uzbekistan, and determines the order of activities for the "CLICK" Joint Stock Company.

1.2. "CLICK" Joint Stock Company, registered in the state registry on November 10, 2011, with the registration number 003686-07, is the legal successor of the Limited Liability Company "CLICK" and is liable for all its obligations.

1.3. The full official name of the company in the state language:

**«CLICK» Aksiyadorlik jamiyati;**

The abbreviated name of the company in the state language:

**"CLICK" AJ;**

The full official name of the company in Russian:

**Акционерное общество "CLICK";**

The abbreviated name of the company in Russian:

**АО "CLICK";**

The full official name of the company in English:

**"CLICK" Joint-Stock Company;**

The abbreviated name of the company in English:

**"CLICK" JSC.**

## 2. LEGAL STATUS, POSTAL ADDRESS, AND EMAIL ADDRESS OF THE COMPANY

2.1. The Company is a legal entity and conducts its activities in accordance with the current legislation of the Republic of Uzbekistan, the legislation of the countries where its commercial activities are carried out, international legal standards, and this Charter.

2.2. The Company has its independent balance sheet and bank accounts. It can open currency and other accounts in banks and other credit institutions located in the territory of the Republic of Uzbekistan and in the territories of the countries where its activities (services) are sold, including where its commercial activities are carried out.

## UMUMIY QOIDALAR

Mazkur Ustav O'zbekiston Respublikasi amaldagi qonunchiligi, shu jumladan O'zbekiston Respublikasi «Aksiyadorlik jamiyatlari va aksiyadorlarning huquqlarini himoya qilish tug'risida»gi Qonuni (06.05.2014y. O'RQ-370-son) va O'zbekiston Respublikasining boshqa normativ-huquqiy hujjatlariga muvofiq holda tuzilgan bo'lib, «CLICK» Aksiyadorlik jamiyati faoliyati tartibini belgilaydi.

«CLICK» Aksiyadorlik jamiyati 2011 yil 10 noyabr kuni 003686-07 -son bilan davlat ro'yhatidan o'tgan mas'uliyati cheklangan jamiyati shaklidagi «CLICK» huquqiy vorisi hisoblanib, uning barcha majburiyatlari bo'yicha javobgardir.

Jamiyatning davlat tilidagi to'liq rasmiy nomi:

**«CLICK» Aksiyadorlik jamiyati;**

Jamiyatning davlat tilidagi qisqartirilgan nomi:

**«CLICK» AJ;**

Jamiyatning rus tilidagi to'liq rasmiy nomi:

**Акционерное общество «CLICK»;**

Jamiyatning rus tilidagi qisqartirilgan nomi:

**АО «CLICK»;**

Jamiyatning ingliz tilidagi to'liq rasmiy nomi:

**«CLICK» Joint-Stock Company;**

Jamiyatning ingliz tilidagi qisqartirilgan nomi:

**«CLICK» JSC.**

## JAMIYATNING YURIDIK MAQOMI, POCHTA MANZILI VA ELEKTRON POCHTA MANZILI

Jamiyat yuridik shaxs xisoblanadi va o'z faoliyatini O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonunchiligi, Jamiyatning xo'jalik faoliyati qaysi davlatlarning hududida amalga oshirilsa, ushbu davlatlarning qonunchiligi, xalqaro huquq mc'yorlariga, shuningdek mazkur Ustavga muvofiq amalga oshiradi.

Jamiyat o'zining mustaqil balansiga va hisobraqamiga ega. Jamiyat hisob-kitoblarni amalga oshirish uchun O'zbekiston Respublikasi hududida va o'z ishlarini (xizmatlarini) sotish joylarida, shu jumladan Jamiyatning xo'jalik faoliyati amalga oshiriladigan davlatlar hududida joylashgan banklarda va boshqa kredit muassasalarida valyuta va boshqa hisobraqamlarni ochishi mumkin.

- 2.3. The Company has the exclusive right to use its trade name. The Company has a round seal with its full trade name written in the state language and its emblem depicted (the seal may also display the trade name in any other desired language), a stamp with its name, letterheads, a trademark, and its emblem.
- Jamiyat o'z firma nomidan foydalanishda mutlaq huquqqa ega. Jamiyat o'zining firma nomi davlat tilida to'liq yozilgan va timsoli tasvirlangan yumaloq muhriga (muhirda qo'shimcha ravishda firma nomi boshqa istalgan tilda ham ko'rsatilishi mumkin), o'z nomi yozilgan shtampi, blankalariga, tovar belgisiga va o'z lirasoligiga ega.
- 2.4. The Company is not liable for the obligations of its shareholders.
- Jamiyat o'z aksiyadorlarining majburiyatlari yuzasidan javobgar bo'lmaydi.
- 2.5. The state and its bodies are not liable for the obligations assumed by the Company, just as the Company is not liable for the obligations assumed by the state and its bodies.
- Davlat va uning organlari Jamiyat o'z zimmasiga olgan majburiyatlar yuzasidan javobgar bo'lmaydilar, xuddi shuningdek Jamiyat ham davlat va uning organlari olgan majburiyatlardan yuzasidan javobgar bo'lmaydi.
- 2.6. The Company's property consists of assets to which it has ownership rights, including funds raised from the placement of shares, fixed and current assets, movable and immovable properties, securities, income received, and other properties acquired on other bases not prohibited by law.
- Jamiyatning mol-mulki unga mulk huquqi asosida tegishli bo'lib, Jamiyat aksiyalarini joylashtirishdan tushgan mablag'lar, asosiy fondlar va aylanma mablag'lar, ko'char va ko'chmas mulklar, qimmatli qog'ozlar, olingan daromad, qonun hujjatlari bilan laqiqlanmagan boshqa asoslarda olingan boshqa mol-mulklardan tashkil topadi.
- 2.7. The Company is liable for its obligations with all its assets.
- Jamiyat o'z majburiyatlari yuzasidan o'ziga tegishli barcha mol-mulki bilan javobgar bo'ladi.
- 2.8. The Company may have subsidiaries and dependent companies with the status of a legal entity obtained in the manner prescribed by law.
- Jamiyat qonun hujjatlarida belgilangan tartibda yuridik shaxs huquqini olgan shu'ba va tobe xo'jalik jamiyatlariga ega bo'lishi mumkin.
- 2.9. The Company may establish branches within the territory of the Republic of Uzbekistan in the established manner and delegate authorities to them within the limits and in accordance with the procedures specified by legal documents and the Company's Charter.
- Jamiyat o'rnatilgan tartibda O'zbekiston Respublikasi hududida filiallar tashkil etishi hamda ularga qonun hujjatlari va Jamiyat Ustavida belgilangan doirada va tartibda vakolatlar berishi mumkin.
- 2.10. The Company may establish new branch enterprises, branches, and representative offices outside the Republic of Uzbekistan and delegate authorities to them within the limits and in accordance with the procedures specified by legal documents and the Company's Charter. Unless otherwise specified by an international treaty of the Republic of Uzbekistan, the establishment of branch enterprises, branches, and representative offices outside the Republic of Uzbekistan by the Company shall be carried out in accordance with the legislation of the country where
- Jamiyat O'zbekiston Respublikasidan tashqarida yangi shu'ba korxonalar, filiallar tashkil etishi va vakolatxonalar ochishi hamda ularga qonun hujjatlari va Jamiyat Ustavida belgilangan doirada va tartibda vakolatlar berishi mumkin. Agar O'zbekiston Respublikasi xalqaro shartnomasida boshqacha qoida belgilanmagan bo'lsa, Jamiyat tomonidan O'zbekiston Respublikasidan tashqarida shu'ba korxonalar, filiallar tashkil etilishi va vakolatxonalar ochilishi, ushbu shu'ba korxonalar, filial va vakolatxonalar joylashgan mamlakat qonunchiligiga muvofiq amalga oshiriladi.

these branch enterprises, branches, and representative offices are located.

2.11. The branches and representative offices of the Company are not considered separate legal entities and operate based on regulations approved by the Company's supervisory board.

Jamiyatning filiallari va vakolatxonalari yuridik shaxs hisoblanmaydi, Jamiyatning kuzatuv kengashi tasdiqlagan nizomlar asosida ish ko'radi.

2.12. The Company has the right to establish administrative offices outside its legal address within the territory of the Republic of Uzbekistan that do not carry out the main activity.

Jamiyat o'zining yuridik manzilidan tashqari O'zbekiston Respublikasi hududida asosiy faoliyatni amalga oshirmaydigan ma'muriy idoralari tashkil etishga haqli.

2.13. The Company may participate in associations (unions) and other alliances for the purpose of coordinating its activities, expressing and protecting its interests, and implementing joint programs.

Jamiyat o'z faoliyatini muvofiqlashtirish, o'z manfaatlarini ifoda etish va himoya qilish hamda birgalikdagi dasturlarni amalga oshirish maqsadida uyushmalar (ittifoqlar) va o'zga birlashmalarda qatnashishi mumkin.

2.14. The duration of the Company's operations is unlimited.

Jamiyat faoliyat ko'rsatish muddati cheklanmagan.

2.15. The Company's location (postal address): 100052, Republic of Uzbekistan, Tashkent city, Mirzo-Ulugbek district, Salar Bo'yi Street, Building 35A.

Jamiyatning joylashgan yeri (pochta manzili): 100052, O'zbekiston Respublikasi, Toshkent shahar, Mirzo-Ulugbek tumani, Salar bo'yi ko'chasi, 35A-uy.

2.16. The Company's email address: info@click.uz

Jamiyatning elektron pochta manzili: info@click.uz

2.17. The Company's official website: click.uz

Jamiyatning rasmiy veb-sayti: click.uz

### **3. THE SCOPE (MAIN DIRECTIONS) AND PURPOSE OF THE COMPANY'S ACTIVITIES**

### **JAMIYAT FAOLIYATINING SOHASI (ASOSIY YO'NALISHLARI) VA MAQSADI**

3.1. The Company is a commercial organization, with its primary goal being to profit from financial and economic activities.

Jamiyat tijorat tashkiloti bo'lib, uning asosiy maqsadi moliyaviy - xo'jalik faoliyatidan foyda olishdir.

3.2. Enhancing production activities to modern technological standards, creating new jobs, and generating profits for the Company and its shareholders are considered the main objectives of the Company's activities.

Ishlab chiqarish faoliyatini zamonaviy texnologik darajaga ko'tarish, yangi ish joylarni yaratish, Jamiyat va uning ishtirokchilari manfaatlarini uchun foyda olish Jamiyat faoliyatining asosiy predmeti hisoblanadi.

3.3. Types of activities of the Company:

Jamiyatning faoliyat turlari:

3.3.1. Financial services of payment systems related to executing transactions simultaneously distributing intermediary fees among payment shareholders;

tranzaksiyalarni bir vaqtning o'zida to'lov ishtirokchilari o'rtasida vositachilik haqlarini taqsimlagan holda amalga oshirish bilan bog'liq to'lov tizimlarining moliya xizmatlari;

3.3.2. Implementation of electronic money and bank cards;

elektron pullarni va bank kartalarini realizatsiya qilish;

|  |   |
|--|---|
| 3.3.3. Acceptance and processing of payments made using electronic money;  | elektron pullardan foydalangan holda amalga oshiriladigan to'lovlarni qabul qilish va bu to'lovlarga ishlov berish;   |
| 3.3.4. Processing electronic payments and transferring necessary information to banks for payment execution, receiving funds for such payments   | elektron shakldagi to'lovlarga ishlov berish va to'lovni amalga oshirish uchun zarur axborotni bankka uzatish, mazkur to'lovlar bo'yicha pul mablag'larini qabul qilish;  |
| 3.3.5. Operations performed by organizations providing information and technological cooperation between payment shareholders, including collecting, processing, and presenting information on operations carried out with bank cards to payment shareholders; | hisob kitoblar ishtirokchilari o'rtasida axborot va texnologik hamkorlikni, shu jumladan hisob-kitoblar ishtirokchilariga bank kartalari bilan amalga oshiriladigan operatsiyalar bo'yicha axborotni to'plash, unga ishlov berish va uni taqdim etish yuzasidan xizmatlar ko'rsatilishini ta'minlovchi tashkilotlar tomonidan amalga oshiriladigan operatsiyalar; |
| 3.3.6. Providing all types of services related to computer networks;   | kompyuter tarmoqlari bilan bog'lik barcha turdagi xizmatlarni amalga oshirish;  |
| 3.3.7. Creating websites;  | veb saytlar yaratish;   |
| 3.3.8. Developing and creating computer programs;  | kompyuter dasturlarini ishlab chiqish va yaratish;  |
| 3.3.9. Maintenance services for the internet and computer networks;  | internet va kompyuter tarmog'ni saqlash xizmat ko'rsatish;  |
| 3.3.10. Establishing internet cafes;   | internet kafelarini tashkil etish;  |
| 3.3.11. Booking and selling airline tickets  | avia chiptalarini bron qilish va sotish;  |
| 3.3.12. Booking and selling train tickets;   | temir yo'l chiptalarini bron qilish va sotish;  |
| 3.3.13. Engaging in the tourism industry;  | turizm soxasida faoliyat yuritish;  |
| 3.3.14. Establishing tourism agencies;   | turizm agenliklarini tashkil etish;   |
| 3.3.15. Organizing hotels and hotel services;  | mehmonxonalar va mehmonxona xizmatlarini tashkil etish;   |
| 3.3.16. Renting light, freight, and passenger transport vehicles;  | yengil, yuk va axolini tashish avtotransportlarini ijaraga berish;  |
| 3.3.17. Providing all types of transport services to the population and organizations;   | aholi va tashkilotlarga barcha turdagi transport xizmatlarini ko'rsatish;   |
| 3.3.18. Selling auto parts;  | avto ehtiyot qismlarini sotish;   |
| 3.3.19. Services for renting and leasing cars;   | avtomobillarni ijaraga olish va ijaraga berish xizmatlari;  |

|   |  |
|---|--|
| 3.3.20. Providing services to the population for cargo transportation within and outside the territory of the Republic of Uzbekistan;             | O'zbekiston Respublikasi hududida va tashqarisida yuk tashish bo'yicha aholiga xizmat ko'rsatish;  |
| 3.3.21. Establishing auto service centers for car technical support;  | avtomobillarga texnik yordam ko'rsatish avtoservislar tashkil etish;   |
| 3.3.22. Opening car dealerships, providing service services;  | avtosalonlar ochish, servis xizmatlarini ko'rsatish;   |
| 3.3.23. Renting cars, buildings, communication devices, photocopying, duplicating, and other types of technical equipment;                        | avtomobil, bino, aloqa vositalari, nusxa ko'chirish, ko'paytirish va boshqa tur texnikalarini ijaraga berish;  |
| 3.3.24. Establishing car wash stations and parking spots;   | avtomobil yuvish shahobchalarini, to'xtab turish joylarini tashkil etish;  |
| 3.3.25. Providing car repair and testing services;  | avtomobillarni qayta ta'mirlash va sinash xizmatlarini ko'rsatish;   |
| 3.3.26. Buying, selling, and leasing agricultural machinery;  | qishloq xo'jalik texnikasini sotib olish, sotish va ijaraga berish;  |
| 3.3.27. Selling, delivering, and repairing spare parts for cars, tractors, and other agricultural machinery;                                      | avtomobil, traktor va boshqa qishloq xo'jalik texnikalarining ehtiyot qismlarini solish, yetkazib berish, ta'mirlash;  |
| 3.3.28. Establishing fuel sales and oil change stations for cars;   | avtomobillarga yonilgi sotish va moy almashtirish shahobchalarini tashkil etish;   |
| 3.3.29. Selling automobile fuel (gasoline, diesel, gas) and oils;   | avtomobil yoqilg'isi (benzin, dizel, gaz yoqilg'isi) xamda moylarini sotish;   |
| 3.3.30. Selling automobiles and other motor vehicles;   | avtomashina va boshqa mototexnika sotish;  |
| 3.3.31. Engaging in retail trade;   | chakana savdo bilan shug'ullanish;   |
| 3.3.32. Manufacturing and selling food, bakery, and confectionery products, animal and vegetable oils, cool drinks, and ice cream dairy products; | oziq-ovqat, nonvoychilik va qandolatchilik maxsulotlarini, xayvon va o'simlik moylarini, salkin ichimliklar va muzkaymok sut-go'sht maxsulotlarini ishlab chiqarish va sotish; |
| 3.3.33. Conducting sales and brokerage operations;  | savdo-xarid va vositachilik ishlarni amalga oshirish;  |
| 3.3.34. Engaging in wholesale trade;  | ulgurji savdo faoliyati bilan shug'ullanish;   |
| 3.3.35. Providing dealership services to mobile phone companies, selling express cards, and mobile phone accessories (PAYNET);                    | uyali telefon kompaniyalariga dilerlik xizmatlarini ko'rsatish, ekspress kartochkalar va uyali telefonlar aksessuarlarini sotish (PAYNET);                                     |
| 3.3.36. Providing consulting services;  | konsalting xizmatlari ko'rsatish;  |

|   |  |
|---|--|
| 3.3.37. Organizing cargo transportation by rail, water, air, road, and other means of transport in the Republic of Uzbekistan and foreign countries;                        | O'zbekiston Respublikasi va xorijiy mamlakatlarda temir yo'l, suv, xavo, avtomobil yo'llari xamda boshqa transport vositalari yuk tashuvlarini tashkil etish;                          |
| 3.3.38. Organizing advertising services;  | reklama xizmatini tashkil etish;   |
| 3.3.39. Conducting construction, repair, restoration, construction-installation, and other contract works;  | qurilish, qurilish ta'mirlash ishlarini, qayta tiklash, qurilish-montaj va boshqa pudrat ishlarini amalga oshirish;  |
| 3.3.40. Providing construction, installation, repair, road construction (asphalting), road maintenance and repair, and commissioning services to legal and natural persons; | yuridik va jismoniy shahslarga qurilish, qurilish montaj, qurilish-ta'mirlash, yo'l qurilish (asfaltlash), yo'llarni ta'mirlash va sozlash, ishga tushirish ishlarini amalga oshirish; |
| 3.3.41. Developing and implementing advanced manufacturing technologies;  | ishlab chiqarishga oid ilg'or texnologiyalarni ishlab chiqish va joriy etish;  |
| 3.3.42. Participating in tender competitions;   | tanlov (tender) sinovlarida qatnashish;  |
| 3.3.43. Organizing and conducting project design and scientific research activities;  | loyiha konstruktorlik va ilmiy-tadqiqot ishlarini tashkil qilish va olib borish;   |
| 3.3.44. Manufacturing and selling construction products;  | qurilish mahsulotlarini ishlab chiqarish va sotish;  |
| 3.3.45. Manufacturing decorative materials, including paint and varnish materials;  | pardozlash, shu jumladan, lok-bo'yoq materiallarini ishlab chiqarish;  |
| 3.3.46. Manufacturing construction materials and structures;  | qurilish materialari va konsruksiyalarini ishlab chiqarish;  |
| 3.3.47. Manufacturing and selling construction materials and structures (concrete mixtures, reinforced concrete, and durability items, etc.);                               | qurilish material va konstruksiyalar ishlab chiqarish va sotish (beton korishmasi, temir beton va duradorlik buyumlar va boshqa);  |
| 3.3.48. Manufacturing chemical components for construction equipment;   | qurilish jixozlari uchun kimyo komponentlarini ishlab chiqarish;   |
| 3.3.49. Designing, constructing, repairing, and commissioning buildings and structures used in industrial, business, social, cultural, and household facilities;            | sanoat va biznesga oid hamda ijtimoiy-madaniy-maishiy o'rinlarda foydalaniladigan bino va qurilmalarni konstruksiyalashtirish, qurish, ta'mirlash va foydalanishga topshirish;         |
| 3.3.50. Providing document duplication services to the population;  | hujjatlarni ko'paytirish bo'yicha axoliga xizmat qilish;   |
| 3.3.51. Producing, implementing, supplying, and selling software products;  | dasturiy ta'minot vositalarini ishlab chiqarish, tadbiiq qilish, ta'minlash va sotish;   |



|   |   |
|---|---|
| 3.3.52. Assembling computers and computing equipment from components;   | kompyuter va hisoblash texnikalarini bitlovchi qismlardan yig'ish;  |
| 3.3.53. Manufacturing and selling food, bakery, and confectionery products, animal and vegetable oils, cool drinks, and ice cream dairy products; | ozik-ovkat, nonvoychilik va kandolatchilik maxsulotlarini, hayvon va usimlik moylarini, salqin ichimlik va muzqaymok, sut-go'sht maxsulotlarini ishlab chiqarish va sotish; |
| 3.3.54. Conducting sales and brokerage operations;  | savdo-harid va vositachilik ishlarini amalga oshirish;  |
| 3.3.55. Engaging in retail trade of food products;  | ozik-ovkat maxsulotlari chakana savdosi bilan shug'ullanish;  |
| 3.3.56. Establishing supermarkets and minimarkets;  | supermarket va minimarketlar tashkil etish;   |
| 3.3.57. Establishing general dining facilities, bars, restaurants, and cafes;   | umumiy ovqatlanish shaxobchalari, bar, restoran va kafelar tashkil etish;   |
| 3.3.58. Establishing pharmaceutical sales outlets;  | dori-darmon sotish shaxobchalarini tashkil qilish;  |
| 3.3.59. Buying and selling medical equipment from abroad;   | tibbiy uskunalarni chet eldan sotib olish va sotish;  |
| 3.3.60. Providing various types of medical and emergency services;  | turli hil ko'rinishidagi meditsina, tez yordam xizmatlarini ko'rsatish;   |
| 3.3.61. Manufacturing various types of goods;   | turli hil ko'rinishdagi mollarni ishlab chiqarish;  |
| 3.3.62. Manufacturing and engaging in retail trade of food products and alcoholic beverages, tobacco products;                                    | oziq-ovkat mahsulotlari xamda alkogol ichimliklari, tamaki maxsulotlarini ishlab chiqarish, ularning chakana savdosi bilan shug'ullanish;                                   |
| 3.3.63. Enriching medicinal preparations with biologically active substances, computer testing;   | dorivor preparatlarni biologik aktiv moddalar bilan boyitish, kompyuter sinovlaridan o'tkazish;   |
| 3.3.64. Establishing rental outlets (transport, household appliances, DVDs, CD disks, video-audio cassettes);                                     | ijaraga berish shaxobchalarini tashkil qilish (transport, maishiy texnikani, DVD, CD-disklar, video-audiokassetlar);  |
| 3.3.65. Organizing household services;  | maishiy xizmat ko'rsatishni tashkil qilish;   |
| 3.3.66. Manufacturing, installing, repairing all types of household appliances, and providing warranty services;                                  | maishiy xizmat texnikasining barcha turlarini ishlab chiqarish, montaj qilish, ta'mirlash va ularga kafolatli xizmatlar ko'rsatish;   |
| 3.3.67. Producing consumer goods;   | xalq iste'mol mollarini ishlab chiqarish;   |
| 3.3.68. Purchasing "KNOW-HOW" technological lines;  | «NOU-XAU» texnologik liniyalarini sotib olish;  |
| 3.3.69. Manufacturing knitting and hosiery products;  | tikuv trikotaj maxsulotlarini ishlab chiqarish;   |

|   |   |
|---|---|
| 3.3.70. Participating in investment programs;   | investitsiya dasturlarida ishtirok etish;   |
| 3.3.71. Participating in establishing joint ventures for processing, manufacturing, and reprocessing agricultural products, livestock, light industry, industrial-construction, consumer goods in the territory of the Republic of Uzbekistan and abroad. | O'zbekiston Respublikasi hududi va xorijda qishloq xo'jalik maxsulotlari, chorvachilik, yengil sanoat, sanoat-qurilish, xalq iste'moli mollarini qayta ishlash, ishlab chiqarish va qo'shma Jamiyatlar tuzishda ishtirok etish.                     |
| 3.4. In cases where a special permit (license) is required, the implementation of various types of activities shall be carried out in accordance with the established regulations and rules stipulated by the current legislation.                        | Jamiyat maxsus ruxsatnoma (litsenziya) mavjud bo'lgan xolda amalga oshiriladigan o'z faoliyat turlarini amaldagi qonunchiligida ko'zda tutilgan tartib va qoidalar asosida amalga oshiradi.   |
| <b>4. THE AMOUNT OF THE COMPANY'S CHARTER FUND, AND THE PROCEDURE FOR INCREASING AND DECREASING IT</b>  | <b>JAMIYAT USTAV FONDINING MIQDORI, UNI KO'PAYTIRISH VA KAMAYTIRISH TARTIBI</b>   |
| 4.1. The charter capital of the company is formed from the nominal value of the company's shares acquired by shareholders. The nominal value of all shares issued by the company must be the same.  | Jamiyatning Ustav kapitali aksiyadorlar tomonidan olingan jamiyat aksiyalarining nominal qiymatidan tashkil topadi. Jamiyat chiqaradigan barcha aksiyalarning nominal qiymati bir xil bo'lishi lozim.   |
| 4.2. The charter fund of the company determines the minimum amount of its property that guarantees the interests of its creditors.  | Jamiyatning ustav fondi uning mol – mulkining o'z kreditorlari manfaatlarini kafolatlaydigan darajadagi eng kam miqdorini belgilaydi.   |
| 4.3. The amount of the company's charter fund is 10,000,000,000 (ten billion) Uzbek som and consists of 10,000,000 (ten million) ordinary shares with a nominal value of 1,000 (one thousand) som each, registered in the names of their holders.         | Jamiyat ustav fondining miqdori 10 000 000 000 (o'n milliard) so'mni tashkil qiladi va mos ravishda jamiyat ustav fondi nominal qiymati 1 000 (ming) so'm bo'lgan, 10 000 000 (o'n million) dona egasining nomi yozilgan oddiy aksiyalardan iborat. |
| 4.3.1. Increasing the Company's Charter Fund  | Jamiyatning Ustav fondini ko'paytirish  |
| 4.3.1.1. The company's charter fund can be increased by placing additional shares.  | Jamiyatning Ustav fondi qo'shimcha aksiyalarni joylashtirish yo'li bilan ko'paytirilishi mumkin.  |
| 4.3.1.2. Additional shares can only be placed within the number of shares specified in the company's charter and announced.   | Qo'shimcha aksiyalar faqat jamiyat Ustavida belgilangan, e'lon qilingan aksiyalarning soni doirasida jamiyat tomonidan joylashtirilishi mumkin.   |
| 4.3.1.3. Decisions to increase the company's charter fund by placing additional shares and to make corresponding amendments to the company's charter are unanimously adopted by the company's supervisory board.  | Qo'shimcha aksiyalarni joylashtirish yo'li bilan jamiyat ustav fondini ko'paytirish va tegishli o'zgartirishlarni jamiyat ustaviga kiritish to'g'risidagi qarorlar jamiyat kuzatuv kengashi tomonidan bir ovozdan qabul qilinadi.                   |
| 4.3.1.4. The decision to increase the company's charter fund by placing additional shares must specify the number of each type of share to be placed, their   | Qo'shimcha aksiyalarni joylashtirish yo'li bilan jamiyat ustav fondini ko'paytirish to'g'risidagi qarorda joylashtiriladigan qo'shimcha oddiy aksiyalarning va  |

|  |  |
|--|--|
| placement period, and conditions within the announced amounts (shares).  | e'lon qilingan miqdorlari (ulushlari) doirasida har bir turdagi aksiyalarning soni, ularni joylashtirish muddati va shartlari belgilangan bo'lishi lozim.  |
| 4.3.1.5. The increase of the company's charter fund through the placement of additional shares is recorded in the amount of the nominal value of the placed additional shares. In this case, the number of announced specific categories and types of shares must be reduced to the number of those categories and types of shares placed. | Jamiyatning ustav fondini qo'shimcha aksiyalar joylashtirish yo'li bilan ko'paytirish joylashtirilgan qo'shimcha aksiyalarning nominal qiymati miqdorida qayd etiladi. Bunda e'lon qilingan muayyan toifa va turdagi aksiyalarning miqdori joylashtirilgan ana shu toifa va turlardagi aksiyalarning sonlga qisqartirilishi kerak. |
| 4.3.1.6. Additional shares can be placed through either a closed or open subscription.   | Qo'shimcha chiqarilayotgan aksiyalar yopiq yoki ochiq obuna usuli bilan joylashtirilishi mumkin.   |
| 4.3.1.7. The increase of the company's charter fund can be carried out in accordance with the law, through attracted investments, the company's own capital, and calculated dividends.   | Jamiyatning Ustav fondini kupaytirish jalb qilingan investitsiyalar, jamiyatning o'z kapitali va hisoblangan dividendlar hisobidan qonun xujjatlarida belgilangan tartibda amalga oshirilishi mumkin.  |
| 4.3.1.8. Payment for the company's shares is carried out in accordance with the procedure established by law.  | Jamiyatning aksiyalariga xaq to'lash qonun xujjatlarida belgilangan tartibda amalga oshiriladi.  |
| 4.3.2. Decreasing the Company's Charter Fund   | Jamiyatning Ustav fondini kamaytirish  |
| 4.3.2.1. The company's charter fund can be decreased by reducing the nominal value of shares or their total number, including by buying back a part of the shares to subsequently withdraw them from circulation.  | Jamiyatning ustav fondi aksiyalarning nominal qiymatini yoki ularning umumiy sonini qisqartirish yo'li bilan, shu jumladan aksiyalarning bir qismini Jamiyatning o'zi keyinchalik muomaladan chiqarish sharti bilan sotib olishi yo'li bilan kamaytirilishi mumkin.  |
| 4.3.2.2. If reducing the charter capital results in its amount falling below the minimum required by law, the company is not entitled to reduce its charter capital.   | Agar Ustav kapitalini kamaytirish natijasida uning miqdori qonun xujjatlarida belgilangan eng kam miqdoridan kamayib ketsa, Jamiyat Ustav kapitalini kamaytirishga haqli emas.   |
| 4.3.2.3. Decisions to reduce the company's charter fund (charter capital) and to make corresponding changes to the company's charter are adopted by the general meeting of shareholders.   | Jamiyatning ustav fondini (ustav kapitalini) kamaytirish to'g'risidagi va jamiyat ustaviga tegishli o'zgartishlar kiritish haqidagi qarorlar aksiyadorlarning umumiy yig'ilishi tomonidan qabul qilinadi.  |
| 4.3.2.4. When deciding to reduce the charter capital, the general meeting of shareholders indicates the reasons for the reduction and establishes the procedure for its reduction.   | Ustav kapitalini kamaytirish to'g'risida qaror qabul qilgan vaqtda aksiyadorlarning umumiy yig'ilishi Ustav kapitalni kamaytirish sabablarini ko'rsatadi va uni kamaytirish tartibini belgilaydi.  |
| <b>5. THE COMPANY'S SHARES, THEIR NOMINAL VALUE, THE PROCEDURE FOR THEIR PLACEMENT, AND THE ANNOUNCED SHARES</b>   | <b>JAMIYATNING AKSIYALARI, ULARNING NOMINAL QIYMATI, ULARNI JOYLATIRISH TARTIBI VA E'LON QILINGAN AKSIYALARI</b>   |

- 5.1. The company's shares are registered securities in the form of ordinary shares bearing the name of the owner.
- 5.2. Shares are indivisible. The legal or natural person who owns the shares, based on property rights or other tangible rights, is recognized as the shareholder- the owner of the share.
- 5.3. Ordinary shares are voting shares, granting their owner the right to receive dividends and participate in the management of the Company. It is not permitted to exchange ordinary shares for preferred shares, corporate bonds, or other securities.
- 5.4. An ordinary share that grants the shareholder the right to vote on issues put to the vote is the company's voting share.
- 5.5. The nominal value of the company's shares is 1,000 (one thousand) Uzbek som.
- 5.6. The company places its issued shares and securities convertible into shares through a closed subscription.
- 5.7. In addition to the shares placed for the purpose of increasing the company's charter fund, the company is entitled to issue announced shares, which consist of 100,000,000 (one hundred million) ordinary registered shares with a nominal value of 1,000 (one thousand) so'm each.
- 5.8. When placing the company's shares and other securities, payment for them is made with money and other means of payment, property, and rights (including property rights) that have a monetary value, provided it does not contradict the laws of the Republic of Uzbekistan. The procedure for paying for additional shares and other securities is determined in the decision to issue them.
- 5.9. Money in the currency of the Republic of Uzbekistan, foreign currency funds, and other property considerations received by the company from the sale of issued shares are accepted, accounted for, stored, and used in accordance with the current legislation.
- Jamiyatning aksiyalari egasining nomi yozilgan emissiyaviy qimmatli qog'ozlar bo'lib, ular turiga ko'ra oddiy aksiyalardir.
- Aksiya bo'linmasdir. Aksiyalar mulk huquqi yoki boshqa ashyoviy huquq asosida qaysi yuridik yoki jismoniy shaxsga tegishli bo'lsa, o'sha yuridik yoxud jismoniy shaxs aksiyaning egasi — aksiyador deb e'tirof etiladi.
- Oddiy aksiyalar ovoz beruvchi aksiyalar bo'lib, ular o'z egasiga dividendlar olish, Jamiyatni boshqarishda ishtirok etish huquqini beradi. Oddiy aksiyalarni imtiyozli aksiyalarga, korporativ obligatsiyalarga va boshqa qimmatli qog'ozlarga ayirboshlashga yo'l qo'yilmaydi.
- Aksiyaning egasi bo'lgan aksiyadorga ovozga qo'yilgan masalani hal etishda ovoz berish huquqini beradigan oddiy aksiya Jamiyatning ovoz beruvchi aksiyasidir.
- Jamiyat aksiyalarining nominal qiymati 1 000 (ming) so'm.
- Jamiyat o'zi chiqarayotgan aksiyalarni va aksiyalarga ayirboshlanadigan qimmatli kog'ozlarni yopiq obuna orqali joylashtiradi.
- Jamiyatning ustav fondini ko'paytirish maqsadida joylashtirilgan aksiyalariga qo'shimcha ravishda chiqarishiga xaqli bo'lgan e'lon qilingan aksiyalarning miqdori, nominal qiymati 1000 (ming) so'm bo'lgan 100 000 000 (yuz million) dona oddiy egasining nomi yozilgan aksiyalardan iborat.
- Jamiyatning aksiyalarini va boshqa qimmatli qog'ozlarini joylashtirish chog'ida ularga xaq to'lash pul mablag'lari va boshqa to'lov vositalari, mol-mulk, shuningdek pulda ifodalanadigan bahoga ega bo'lgan huquqlar (shu jumladan mulkiy huquqlar) orqali amalga oshiriladi, ammo O'zbekiston Respublikasi konunchiligiga zid bolmagan xolda. Jamiyatni qo'shimcha aksiyalar va boshqa qimmatli kog'ozlarga xaq to'lash tartibi ularni chiqarish to'g'risidagi qarorda belgilab ko'yiladi.
- Jamiyat tomonidan chiqarilgan aksiyalarni sotilishidan Jamiyat hisobiga kelib tushgan O'zbekiston Respublikasi valyutasidagi pul mablag'lari, valyuta mablag'lari va boshqa mulkiy badallar amaldagi qonunchilik tomonidan belgilangan tartibda qabul qilinadilar, hisoblanadilar, saqlanadilar va foydalanadilar.

- 5.10. When placing additional shares and other securities of the company, payment for them is made at a price not less than that specified in the decision to issue them. Jamiyatning qushimcha aksiyalari va boshqa qimmatli qog'ozlarini joylashtirish chog'ida ularga xaq to'lash ularni chiqarish to'g'risidagi qarorda belgilanganidan kam bo'lmagan narx bo'yicha amalga oshiriladi.
- 5.11. When increasing the company's charter fund, payment for the company's additional shares can be made from its own capital and also through dividends decided to be paid with additional shares, in which case such shares are placed at their nominal value. Jamiyatning Ustav fondi kupaytirilayotganda jamiyatning qo'shimcha aksiyalariga uning o'z kapitali hisobidan, shuningdek xaqini qushimcha aksiyalar bilan to'lash tug'risida qaror qabul qilingan dividendlar hisobidan xaq to'langan taqdirda bunday aksiyalarni joylashtirish jamiyat aksiyalarining nominal qiymati bo'yicha amalga oshiriladi.

## 6. THE RIGHTS AND OBLIGATIONS OF THE COMPANY'S SHAREHOLDERS JAMIYAT AKSIYADORLARINING HUQUQ VA MAJBURIYATLARI

- 6.1. Shareholders have the following rights: Aksiyadorlar quyidagi huquqlarga egadirlar:
- 6.1.1. to be included in the register of the respective company's shareholders; tegishli jamiyat aksiyadorlarining reestriga kiritilish;
- 6.1.2. to obtain a copy relevant to them from the depository account; depo hisobvarag'idan o'ziga taalluqli ko'chirma olish;
- 6.1.3. to receive a portion of the company's profits in the form of dividends; jamiyat foydasining bir qismini dividendlar tarzida olish;
- 6.1.4. to receive a portion of the property corresponding to their share in the event of the company's liquidation; jamiyat tugatilgan taqdirda o'zlariga tegishli ulushga muvofiq mol-mulkning bir qismini olish;
- 6.1.5. to participate in the management of the company by voting at general meetings of shareholders; aksiyadorlarning umumiy yig'ilishlarida ovoz berish orqali jamiyatni boshqarishda ishtirok etish;
- 6.1.6. to receive complete and reliable information about the financial and documentary activities of the company in the prescribed manner; jamiyatning moliya-xo'jalik faoliyati natijalari to'g'risida to'liq va ishonchli axborotni belgilangan tartibda olish;
- 6.1.7. to freely dispose of the dividends received; olgan dividendini erkin tasarruf etish;
- 6.1.8. to protect their rights at the competent state regulatory authority for the securities market and in court; qimmatli qog'ozlar bozorini tartibga solish bo'yicha vakolatli davlat organida shuningdek sudda o'z huquqlarini ximoya qilish;
- 6.1.9. to demand compensation for damage inflicted on them in the prescribed manner; o'ziga yetkazilgan zararining o'rnini qoplanishini belgilangan tartibda talab kilish;
- 6.1.10. to join associations and other non-governmental non-profit organizations to express and protect their interests; o'z manfaatlarini ifodalash va ximoya qilish maqsadida uyushmalarga va boshqa nodavlat notijorat tashkilotlariga birlashish;

- 6.1.11. to have the right to insure the risks associated with the acquisition of securities, including the risk of lost profits. qimmatli qog'ozlarni olishda zarar ko'rish, shu jumladan boy berilgan foyda ehtimoli bilan bog'lik tavakkalchiliklarni sug'urta qilish huquqiga ega.
- Shareholders may also have other rights in accordance with the laws. Aksiyadorlar qonun xujjatlariga muvofiq boshqa huquqlarga xam ega bo'lishi mumkin
- 6.2. Shareholders who own ordinary shares may participate in the general meeting of shareholders with the right to vote on all issues within the competence of this meeting in accordance with this Charter, and have the right to receive dividends and, in the event of the company's liquidation, a portion of the company's property. Oddiy aksiyalarning egalari bo'lgan aksiyadorlar ushbu Ustavga muvofiq aksiyadorlar umumiy yig'ilishida mazkur yig'ilish vakolatiga kiradigan barcha masalalar bo'yicha ovoz berish huquqi bilan ishtirok etishi mumkin, shuningdek dividendlar olish, Jamiyat tugatilgan taqdirda esa, Jamiyat mol-mulkinging bir qismini olish huquqiga egadirlar.
- 6.3. The company's shareholders have the preferential right to purchase shares being sold by other shareholders at the price and under the conditions offered to a third party, proportionate to the number of shares each of them holds. The period for exercising the preferential right is 10 (ten) days from the date the company announces the provision of the preferential right, as established by law. Jamiyatning aksiyadorlari boshqa aksiyadorlar tomonidan sotilayotgan aksiyalarni uchinchi shaxsga taklif etilayotgan narx bo'yicha va shartlar asosida, aksiyadorlarning har biriga tegishli aksiyalarning soniga mutanosib ravishda olish imtiyozli xuquqiga egadirlar. Bunda imtiyozli xuquqdan foydalanish muddati Jamiyat tomonidan qonunchilikda belgilangan tartib va muddatda imtiyozli xuquq takdim etilishi to'g'risida e'lon berilgan kundan boshlab 10 (o'n) kunni tashkil etadi.
- 6.4. The company's shareholders have the right to preferentially purchase additional issued shares and securities convertible into shares. A shareholder entitled to preferential rights can exercise these rights, in whole or in part, by sending the company a written application indicating their full name (name) and address (location), the number of securities they are acquiring, and a document proving payment. Jamiyatning aksiyadorlari ko'shimcha chiqariladigan aksiyalarni va aksiyalarga ayirboshlanadigan emissiyaviy qimmatli qog'ozlarni imtiyozli sotib olish huquqiga egalar. Imtiyozli huquqqa ega bo'lgan aksiyador aksiyalarni va aksiyalarga ayirboshlanadigan emissiyaviy qimmatli qog'ozlarni olishi to'g'risida o'zining ismi-sharifi (nomi) va yashash joyi (joylashgan yeri), o'zi oladigan emissiyaviy qimmatli qog'ozlarning soni ko'rsatilgan yozma shakldagi arizani va haq to'laganlik to'g'risidagi hujjatni jamiyatga yuborish orqali o'z imtiyozli huquqini to'liq yoki qisman amalga oshirishga haqli.
- 6.5. Rights to shares are transferred to the acquirer from the moment the relevant entry is made in their depository account in the prescribed manner and confirmed by a copy of the depository account. Aksiyalarga bo'lgan huquqlar aksiyalarni oluvchiga uning depo hisobvarag'iga tegishli kirim yozuvi belgilangan tartibda kiritilgan paytdan e'tiboran o'tadi va qonun hujjatlarida belgilangan tartibda beriladigan depo hisobvarag'idan ko'chirma bilan tasdiqlanadi.
- 6.6. The rights confirmed by the share are transferred to the recipient from the moment the rights to this security are transferred. Aksiya bilan tasdiqlanadigan huquqlar ularning oluvchisiga ushbu qimmatli qog'ozga bo'lgan huquqlar o'tgan paytdan e'tiboran o'tadi.
- 6.7. the obligations of the company's shareholders include: Jamiyat aksiyadorlarining majburiyatlari:

- |  |   |
|--|---|
| 6.7.1. to pay for the shares in the manner, amount, and methods specified in this Charter;   | mazkur Ustavda ko'rsatilgan tartibda, miqdor va usullarda aksiyalarning haqini to'lash;   |
| 6.7.2. to comply with the decisions of the company's management bodies within the limits provided in this Charter;                                       | mazkur Ustavda nazarda tutilgan chegaralarda, Jamiyat boshqaruv organlarining qarorlariga bo'ysunish,   |
| 6.7.3. not to disclose confidential information of the company;  | Jamiyatning maxfiy tusda bo'lgan axborotlarini oshkor qilmaslik;  |
| 6.7.4. to timely inform the investment intermediary providing services for accounting for their rights to shares about any changes in their information. | o'ziga oid ma'lumotlardagi o'zgarishlar haqida o'z vaqtida o'z aksiyalariga bo'lgan huquqlarini hisobga olish bo'yicha xizmatlar ko'rsatuvchi investitsiya vositachisini xabardor qilish. |
| 6.8. Shareholders will also have other obligations provided in this Charter and legislation.   | Aksiyadorlar mazkur Ustavda va qonunchilikda nazarda tutilgan boshqa majburiyatlarga ham ega bo'ladilar.  |

## **7. DISTRIBUTION OF THE COMPANY'S PROFITS, DIVIDENDS, AND COVERING LOSSES**

## **JAMIYAT FOYDASINI, DIVIDENDLARNI TAQSIMLASH VA ZARARNI QOPLASH TARTIBI**

- |   |  |
|---|--|
| 7.1. Based on existing legislation, taxes and other mandatory payments are made to the budget before allocations are made to the Company's funds. Undistributed profit is used in the manner determined by the general meeting of the Company's shareholders. | Amaldagi qonunchilikka asosan budjetga soliqlar va boshqa majburiy to'lovlar to'langanidan so'ng, Jamiyat fondlariga ajratmalar bajariladi. Taqsimlanmagan foyda Jamiyat aksiyadorlari umumiy yig'ilishi tomonidan belgilangan tartibda ishlatiladi. |
| 7.2. A dividend is a part of the Company's net profit distributed among shareholders. Dividends are paid from the net profit remaining at the disposal of the company and/or undistributed profits from previous years.                                       | Dividend Jamiyat sof foydasining aksiyadorlar o'rtasida taqsimlanadigan qismidir. Dividendlar jamiyat tasarrufida qoladigan sof foydasidan va (yoki) o'tgan yillarning taqsimlanmagan foydasidan to'lanadi.  |
| 7.3. The Company is obliged to pay announced dividends for each type of share.  | Jamiyat aksiyalarning har bir turi bo'yicha e'lon qilingan dividendlarni to'lashi shart.   |
| 7.4. Dividends may be paid in cash or other legal means of payment or in the form of the company's securities, according to the decision of the general meeting of shareholders.  | Dividend aksiyadorlarning umumiy yig'ilishi qaroriga ko'ra pul mablag'lari yoki boshqa qonuniy to'lov vositalari yohud jamiyatning qimmatli qog'ozlari bilan to'lanishi mumkin.  |
| 7.5. Dividends are distributed among shareholders proportionally to the number and type of shares they hold.  | Dividend aksiyadorlar o'rtasida ularga tegishli aksiyalarning soni va turiga mutanosib ravishda taqsimlanadi.  |
| 7.6. The Company has the right to decide to pay dividends based on the results of the first quarter, half-year, nine months, and/or the financial year results for placed shares.   | Jamiyat moliyaviy yilning birinchi choragi, yarim yilligi, to'qqiz oyi natijalariga ko'ra va (yoki) moliyaviy yil natijalariga ko'ra joylashtirilgan aksiyalar bo'yicha dividendlar to'lash to'g'risida qaror qabul qilishga xaqli.                  |

- 7.7. The decision to pay dividends based on the results of the first quarter, half-year, and nine months of the financial year can be made within three months after the end of the relevant period.
- 7.8. The decision on the payment of dividends, the amount of the dividend, the form and procedure of payment for each type of shares is made by the general meeting of shareholders based on the recommendation of the Company's Supervisory Board, provided there is an audit opinion on the reliability of the financial report, and based on the information of the financial report. The amount of dividends cannot exceed the amount recommended by the Company's Supervisory Board.
- 7.9. The general meeting of shareholders has the right to decide not to pay dividends for certain types of shares.
- 7.10. Individuals listed in the registry of the Company's shareholders formed for holding the general meeting of shareholders, at which the decision to pay dividends was made, have the right to receive dividends for shares.
- 7.11. The decision on dividend payment must specify the start and end dates of the dividend payment.
- 7.12. The terms and procedures for dividend payment are determined by the decision of the general meeting of shareholders. The deadline for dividend payment should not be later than 60 (sixty) days from the day the decision was made.
- 7.13. The Company is not entitled to decide to pay dividends if:
- 7.13.1. the entire charter fund of the Company has not been fully paid at the time of its establishment;
- 7.13.2. if there are signs of bankruptcy in the Company at the time of dividend payment or if such signs appear as a result of the dividend payment;
- 7.13.3. if the value of the Company's net assets is less than the sum of its charter fund and reserve fund.
- Jamiyatning moliyaviy yilning birinchi choragi, yarim yilligi va to'qqiz oyi natijalariga ko'ra dividendlar to'lash to'g'risidagi qarori tegishli davr tugagandan keyin uch oy ichida qabul qilinishi mumkin.
- Aksiyalarning xar bir turi bo'yicha dividendlar to'lash, dividendning miqdori, uni to'lash shakli va tartibi tug'risidagi qaror jamiyat Kuzatuv kengashining tavsiyasi, moliyaviy hisobotning ishonchliligi xaqida auditorlik xulosasi mavjud bo'lgan taqdirda, moliyaviy hisobot ma'lumotlari asosida aksiyadorlarning umumiy yig'ilishi tomonidan qabul qilinadi. Dividendlarning miqdori jamiyat Kuzatuv kengashi tomonidan tavsiya etilgan miqdordan ko'p bo'lishi mumkin emas.
- Aksiyadorlarning umumiy yig'ilishi aksiyalarning muayyan turlari bo'yicha dividendlar to'lamaslik to'g'risida qaror qabul qilishga xaqli.
- Aksiyadorlarga dividendlarni to'lash to'g'risida qaror qabul qilingan aksiyadorlarning umumiy yig'ilishini o'tkazish uchun shakllantirilgan Jamiyat aksiyadorlarining reestrda qayd etilgan shaxslar aksiyalar bo'yicha dividend olish huquqiga ega.
- Dividendlar to'lash to'g'risidagi qarorda dividendlar to'lash boshlanadigan va tugallanadigan sanalar ko'rsatilgan bo'lishi lozim.
- Dividendlarni to'lash muddati va tartibi aksiyadorlarning umumiy yig'ilishi qarorida belgilanadi. Dividendlarni to'lash muddati shunday qaror qabul qilingan kundan e'tiboran 60 (oltmish) kundan kech bo'lmasligi lozim.
- Jamiyat quyidagi hollarda dividendlarni to'lash haqida qaror qabul qilishga haqli emas:
- Jamiyat ustav fondining hammasi uning ta'xis etilishi chog'ida to'liq to'lab bo'linguniga qadar;
- agar dividendlar to'lanadigan paytda Jamiyatda bankrotlik belgilari mavjud bo'lsa yoki Jamiyatda shunday belgilar dividendlarni to'lash natijasida paydo bo'lsa;
- agar Jamiyat sof aktivlarining qiymati uning ustav fondi va zaxira fondi summasidan kam bo'lsa.



Once these conditions are rectified, the Company must pay the calculated dividends to the shareholders. Ushbu bandda ko'rsatilgan holatlar tugatilgach, Jamiyat hisoblangan dividendlarni aksiyadorlarga to'lashi shart.

7.14. The Company announces the amount of dividends without considering the taxes to be deducted from them. Jamiyat dividendlar miqdorini ulardan undiriladigan soliqlarni inobatga olmagan holda e'lon qiladi.

7.15. Dividends not claimed by the owner or their legal successors or heirs within three years remain at the disposal of the company by the decision of the general meeting of shareholders. Egasi yoki egasining qonuniy huquqiy vorisi yohud merosxori tomonidan uch yil ichida talab qilib olinmagan dividend aksiyadorlarning umumiy yig'ilishi qaroriga ko'ra jamiyat ixtiyorida qoladi.

7.16. The Company's losses are covered by the reserve fund's resources in accordance with the legislation. Jamiyatning zararlari qonunchilikda belgilangan tartibda zaxira fondi mablag'lari hisobiga qoplanadi.

## **8. ESTABLISHMENT PROCEDURE FOR THE COMPANY'S RESERVE AND OTHER FUNDS** **JAMIYATNING ZAXIRA FONDINI VA BOSHQA FONDLARINI TASHKIL ETISH TARTIBI**

8.1. From the Company's net profit, the following are formed: Jamiyat sof foydasi xisobidan:

8.1.1. Reserve Fund; Zaxira Fondi;

8.1.2. Other Funds as determined by the Company's Supervisory Board, necessary for the Company's operations. Jamiyat Kuzatuv kengashi tomonidan aniqlanadigan, Jamiyat faoliyati uchun zarur bo'lgan boshqa Jamg'armalar tuziladi.

8.2. The Company establishes insurance and other reserve funds in the course of its activities. A reserve fund of the Company is formed in an amount not less than 15% of the Company's charter fund. Jamiyat o'z faoliyatini yuritishda sug'urta va boshqa zahira fondlarini tashkil qiladi. Jamiyat Ustav fondining 15% kam bo'lmagan miqdorda jamiyat zahira fondi tuziladi.

8.3. The Company's reserve fund is intended to cover the Company's losses and to repurchase its shares if no other funds are available. The use of the reserve fund for other purposes is prohibited. Jamiyatning zahira fonda, boshqa mablag'lar mavjud bo'lmagan taqdirda, jamiyatning zararlari o'rnini qoplash va jamiyatning aksiyalarini qaytarib sotib olish uchun mo'ljallanadi. Zahira fondidan boshqa maqsadlarda foydalanish ta'qiqlanadi.

8.4. Until reaching the amount specified in clause 8.2 of this Charter, the Company annually allocates not less than 5% of the net profit to the reserve fund. Jamiyat zahira fondiga ushbu Ustavning 8.2.-bandida belgilangan miqdorga yetguniga qadar har yili sof foydadan 5% kam bo'lmagan miqdorida ajratmalar o'tkazadi.

8.5. If the reserve fund is fully or partially spent, it is replenished from mandatory allocations. Zahira fondi to'laligicha yoki qisman sarflanib bo'lgan hollarida majburiy ajratmalardan tiklanadi.

## **9. STRUCTURE OF THE COMPANY'S MANAGEMENT** **JAMIYAT BOSHQARUVINING TUZILMASI**

|  |  |
|--|--|
| <p>9.1. The management bodies of the Company consist of:</p> <ul style="list-style-type: none"> <li>– The General Meeting of Shareholders,</li> <li>– The Supervisory Board,</li> <li>– The Executive Body (Chief Executive Officer).</li> </ul>   | <p>Jamiyatning boshqaruv organlari quyidagilardan iborat:</p> <ul style="list-style-type: none"> <li>– Aksiyadorlarning umumiy yigilishi,</li> <li>– Kuzatuv kengashi</li> <li>– Ijroiya organi (Bosh direktor).</li> </ul>  |
| <p><b>10. THE GENERAL MEETING OF SHAREHOLDERS</b></p>  | <p><b>AKSIYADORLARNING UMUMIY YIG'ILISI II</b></p>   |
| <p>10.1. The general meeting of shareholders is the supreme governing body of the company</p>  | <p>Aksiyadorlarning umumiy yig'ilishi Jamiyatning yuqori boshqaruv organidir.</p>  |
| <p>10.2. The company must hold an annual general meeting of shareholders within six months after the end of the financial year.</p>  | <p>Jamiyat har yili aksiyadorlarning umumiy yig'ilishini (aksiyadorlarning yillik umumiy yig'ilishini) o'tkazishi shart. Aksiyadorlarning umumiy yig'ilishi moliya yili tugaganidan keyin uzog'i bilan 6 oy muddat ichida o'tkaziladi.</p>   |
| <p>10.3. The annual general meeting discusses the election of the supervisory board and the audit commission members/auditor (if any), extension (renewal or termination) of the contract with the company's sole executive body, distribution of the company's profits and losses, and reviews the company's annual report and other documents.</p>   | <p>Aksiyadorlarning yillik umumiy yig'ilishida Jamiyatning kuzatuv kengashini va taftish komissiyasi a'zolari/taftishchisini (mavjud bo'lgan taqdirda) saylash to'g'risidagi, Jamiyat yakkaboshchilik asosidagi ijroiya organi bilan tuzilgan shartnomaning amal qilish muddatini uzaytirish (shartnomani qayta tuzish yoki uni tugatish (bekor qilish) mumkinligi to'g'risidagi shuningdek Jamiyatning foydasi va zararlarini taqsimlash masalalari va Jamiyatning yillik hisoboti va boshqa hujjatlari ko'rib chiqiladi.</p>   |
| <p>10.4. Meetings held apart from the annual general report meeting are considered extraordinary.</p>  | <p>Aksiyadorlarning yillik umumiy hisobot yig'ilishidan tashqari o'tkaziladigan yig'ilishlar navbatdan tashqari hisoblanadi.</p>   |
| <p>10.5. The date and procedure for holding the general meeting, the procedure for notifying shareholders about the meeting, and the list of materials (information) provided to shareholders during the preparation for the general meeting are determined by the company's supervisory board.</p>  | <p>Aksiyadorlarning umumiy yig'ilishini o'tkazish sanasi va tartibi, yig'ilish o'tkazilishi haqida aksiyadorlarga xabar berish tartibi, aksiyadorlarning umumiy yig'ilishini o'tkazishga tayyorgarlik vaqtida aksiyadorlarga beriladigan materiallarning (axborotning) ro'yxati Jamiyat kuzatuv kengashi tomonidan belgilanadi.</p>  |
| <p>10.6. The general meeting of shareholders has the authority to:</p> <ul style="list-style-type: none"> <li>– Amend the company's charter or approve a new version of the charter;</li> <li>– Reorganize the company;</li> <li>– Liquidate the company, appoint a liquidator (liquidation commission), and approve the interim and final liquidation balance sheets;</li> <li>– Determine the number and composition of the supervisory board, elect its members, and prematurely terminate their powers. Decide on rewards and compensations for members of the supervisory board;</li> </ul> | <p>Aksiyadorlar umumiy yig'ilishining vakolat doirasiga quyidagilar kiradi:</p> <ul style="list-style-type: none"> <li>– Jamiyat Ustaviga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish yoki Jamiyatning yangi tahrirdagi ustavini tasdiqlash;</li> <li>– Jamiyatni qayta tashkil etish;</li> <li>– Jamiyatni tugatish, tugatuvchini (tugatish komissiyasini) tayinlash hamda oraliq va yakuniy tugatish balanslarini tasdiqlash;</li> <li>– Jamiyat kuzatuv kengashining soni va tarkibini belgilash, ularning a'zolarini saylash va a'zolarining vakolatlarini muddatidan ilgari tugatish. Kuzatuv</li> </ul> |

- Determine the maximum number of shares to be issued;
- Reduce the company's charter fund;
- Repurchase its shares;
- Approve the company's organizational structure,
- Elect the company's audit commission/auditor and prematurely terminate its powers, as well as approve the regulation about the audit commission/auditor. Decide on rewards and compensations for the audit commission/auditor;
- Approve the company's annual report;
- Distribute the company's profits and losses;
- Listen to the reports of the supervisory board and the conclusions of the auditor of the Supervisory Board of the Society and of the audit commission/inspector (if any) on the issues within the scope of their authority, including compliance with the requirements established by the legislation on the management of the Society;
- Approve the regulation of the general meeting of shareholders;
- Split and consolidate shares;
- Decide on major transactions in cases provided by law;
- Determine the auditing organization for the mandatory audit inspection, the maximum fee for its services, and conclude (terminate) the contract with it;
- Decide on transactions with affiliated persons of the company in cases provided by law;
- Decide on the payment of dividends, determine the amount of dividends for each category and type of shares, and the form and procedure of payment;
- Resolve other issues provided by legislation and the company's charter.

10.7. Issues within the competence of the general meeting of shareholders cannot be delegated to the company's executive body for resolution.

10.8. Issues within the competence of the general meeting of shareholders cannot be delegated to the supervisory board for resolution, except for matters related to amendments to the company's charter associated with an increase in the charter fund.

- kengashi a'zolariga mukofot va kompensatsiyalar to'lash;
- e'lon qilingan aksiyalarning eng ko'p miqdorini belgilash;
- Jamiyatning ustav fondini kamaytirish;
- o'z aksiyalarini qaytarib solib olish;
- Jamiyatning tashkiliy tuzilmasini tasdiqlash;
- Jamiyat taftishi komissiyasi/taftishchisini saylash va uning vakolatlarini muddatidan ilgari tugatish, shuningdek taftish komissiyasi/taftishchi to'g'risidagi nizomni tasdiqlash. Taftish komissiyasi/taftishchiga mukofot va kompensatsiyalar to'lash;
- Jamiyatning yillik hisobotini tasdiqlash;
- Jamiyatning foydasi va zararlarini taqsimlash;
- Jamiyat kuzatuv kengashining va taftish komissiyasi/taftishchisining (mavjud bo'lgan taqdirda) o'z vakolat doirasiga kiradigan masalalar yuzasidan, shu jumladan Jamiyatni boshqarishga doir qonun hujjatlarida belgilangan talablarga rioya etilishi yuzasidan Jamiyat kuzatuv kengashining hisobotlarini va tafchisining xulosalarini eshitish;
- aksiyadorlar umumiy yig'ilishining reglamentini tasdiqlash;
- aksiyalarni maydalash va yiriklashtirish;
- qonunchilikda nazarda tutilgan hollarda yirik bitimlar tuzish xaqida qaror qabul qilish;
- majburiy auditorlik tekshiruvini o'tkazish uchun auditorlik tashkilotini belgilash, ushbu tashkilotning xizmatlariga to'lanadigan eng ko'p haq miqdori va u bilan shartnoma tuzish (shartnomani bekor qilish) to'g'risida qaror qabul qilish;
- qonunchilikda nazarda tutilgan hollarda Jamiyatning affillangan shaxslari bilan bitimlar tuzish xaqida qaror qabul qilish;
- dividendlar to'lash to'g'risida qarorni qabul qilish, aksiyalarning har bir toifasi va turi bo'yicha dividend miqdori, to'lov shakli va tartibini belgilash;
- qonunchilikda va mazkur Ustavda ko'zda tutilgan boshqa masalalarni hal etish.

Aksiyadorlar umumiy yig'ilishining vakolat doirasiga kiritilgan masalalar Jamiyatning ijroiya organi hal qilishi uchun berilishi mumkin emas.

Aksiyadorlar umumiy yig'ilishining vakolat doirasiga kiritilgan masalalar Jamiyat kuzatuv kengashi hal qilishi uchun berilishi mumkin emas, Jamiyatning ustav fondini ko'paytirish bilan bog'liq o'zgartirishlarni Jamiyat

ustaviga kiritish to'g'risidagi masalani xal etish bundan mustasno.

10.9. If a single shareholder owns all ordinary shares of the company, a general meeting of shareholders is not held. Decisions on matters within the competence of the general meeting of shareholders as provided by this Law and the company's charter are made independently by such a shareholder and formalized in writing. Legislation and the company's charter regarding the preparation, convening, and holding of the general meeting of shareholders, including deadlines, do not apply in this case, except for the deadlines for holding the annual general meeting. The decision of the company as a sole shareholder may be made independently by the shareholder, based on a written request from the Company's Supervisory Board and/or General Director. If the decision to be made requires a recommendation from the Company's Supervisory Board according to the legislation and this charter, or if it must be preliminarily approved by the Supervisory Board, such decisions are made by the company shareholder (or shareholder's representative) after receiving such recommendations or following such preliminary approval.

Jamiyatning oddiy aksiyalari bitta aksiyadorga tegishli bo'lgan taqdirda jamiyatda aksiyadorlarning umumiy yig'ilishi o'tkazilmaydi. Ushbu Qonun va jamiyatning ustavi bilan aksiyadorlarning umumiy yig'ilishi vakolatiga kiritilgan masalalar bo'yicha qarorlar bunday aksiyador tomonidan yakka tartibda qabul qilinadi hamda yozma shaklda rasmiylashtiriladi. Bunda konunchilik bilan belgilangan aksiyadorlar umumiy yig'ilishiga tayyorgarlik ko'rish, uni chaqirish va o'tkazish tartibini hamda muddatlarini belgilovchi qoidalarini qo'llanilmaydi, aksiyadorlarning yillik umumiy yig'ilishini o'tkazish muddatlariga taalluqli qoidalar bundan mustasno. Jamiyat yakka aksiyadorining qarori ushbu aksiyador tomonidan mutaqqil ravishda, Jamiyat Kuzatuv kengashining va (yoki) Bosh Direktorining yozma murojaati asosida qabul qilinishi mumkin. Agar qabul qilinishi lozim bo'lgan qaror bo'yicha Qonunchilikka va ushbu ustavga muvofiq Jamiyat Kuzatuv kengashining tavsiyasi yoki Kuzatuv kengashi tomonidan dastlabki tarzda ma'qullanishi lozim bo'lsa, bunday qarorlar, qarorlar Jamiyat aksiyadori (aksiyador vakili) tomonidan shunday tavsiyalar olinganidan so'ng yoki dastlabki tarzda ma'qullanganidan so'ng qabul qilinadi.

10.10. If there is more than one shareholder according to the shareholder registry, the general meeting of shareholders is convened and held in accordance with the law.

Agar aksidorlar reestra muvofiq jamiyat aksiyadorlari bittadan ortiq bo'lsa, jamiyat aksiyadorlarining umumiy yig'ilishini chaqirish va o'tkazish qonunchilikda belgilangan tartibda amalga oshiriladi.

10.11. The annual general meeting of shareholders is chaired by the chairman of the supervisory board or, in their absence due to valid reasons, by another member of the supervisory board.

Aksiyadorlarning yillik umumiy yig'ilishini Jamiyat Kuzatuv kengashining raisi, u uzrli sabablarga ko'ra bo'lmagan taqdirda esa, Jamiyat kuzatuv kengashining a'zolaridan biri olib boradi.

10.12. Shareholders owning at least one percent of all voting shares of the company can propose items for the agenda of the annual general meeting and nominate candidates for the supervisory board and audit commission/auditor within 60 days after the end of the financial year.

Jamiyat ovoz beruvchi aksiyalarining hammasi bo'lib kamida bir foiziga egalik qiluvchi aksiyadorlar (aksiyador) Jamiyatning moliya yili tugaganidan keyin 60 (o'ttiz) kundan kechiktirmay aksiyadorlarning yillik umumiy yig'ilishi kun tartibiga masalalar kiritishga hamda Jamiyat kuzatuv kengashi va taftish komissiyasi/taftishchisiga (mavjud bo'lgan taqdirda) bu organning miqdor tarkibidan oshmaydigan tarzda nomzodlar ko'rsatishga haqli.

10.13. The minutes of the general meeting of shareholders' decisions are prepared in two copies within ten days after the meeting closes. Both copies

Aksiyadorlar umumiy yig'ilishining qarorining bayonnomasi aksiyadorlarning umumiy yig'ilishi yopilganidan keyin 10 kundan kechiktirmay 2 nusxada tuziladi. Har ikkala nusxa ham umumiy yig'ilishda raislik

are signed by the person chairing the meeting and the secretary of the meeting.

10.14. Shareholders may participate remotely in the general meeting of shareholders using information and communication technologies (ICT), discuss agenda items, and vote on decisions.

10.15. Other issues related to the organization and conduct of the general meeting of shareholders are regulated by the current legislation and the company's regulation on the general meeting of shareholders.

## 11. THE COMPANY'S SUPERVISORY BOARD

11.1. The Company's Supervisory Board oversees the company's activities, except for matters within the competence of the general meeting of shareholders.

11.2. The Supervisory Board's responsibilities include:

- Defining the priority directions of the company's activity;
- Convening the annual and extraordinary general meetings of shareholders, except in cases specified by law;
- Preparing the agenda for the general meeting of shareholders;
- Setting the date, time, and place for the general meeting of shareholders;
- Determining the date for forming the list of shareholders to be notified about the general meeting;
- Including issues related to the parts a) and t) of clause 10.6 of this Charter in the agenda of the general meeting of shareholders;
- Organizing the valuation of the company's assets;
- Making decisions on increasing the company's charter fund and making relevant amendments to the company's charter;
- Approving the decision and prospectus for the issuance of shares, as well as making amendments and additions to previously registered issues of securities;
- Setting the price for placing shares (issuing securities for sale);
- Deciding on conducting an audit (besides the mandatory audit), appointing an auditing organization, and setting a limit for the fee for its services;

qiluvchi va umumiy yig'ilish kotibi tomonidan imzolanadi.

Aksiyadorlar aksiyadorlarning umumiy yig'ilishida axborot kommunikatsiya texnologiyalari (AKT)dan foydalangan holda masofadan turib ishtirok etish, kun tartibidagi masalalarni muhokamaga etish va ovozga qo'yilgan masalalar bo'yicha qarorlar qabul qilishda ishtirok etishlari mumkin.

Aksiyadorlar umumiy yig'ilishini tashkillashtirish va o'tkazish bilan bog'liq boshqa masalalar amaldagi qonunchilik va Jamiyatning «Aksiyadorlar umumiy yig'ilishi to'g'risida» gi Nizomi bilan tartibga solinadi.

## JAMIYATNING KUZATUV KENGASHI

Jamiyatning Kuzatuv kengashi jamiyat faoliyatiga umumiy rahbarlikni amalga oshiradi, aksiyadorlar umumiy yig'ilishining vakolat doirasiga kiritilgan masalalarni hal etish bundan mustasno.

Jamiyat kuzatuv kengashining vakolat doirasiga quyidagilar kiradi:

- Jamiyat faoliyatining ustuvor yo'nalishlarini belgilash;
- Jamiyat aksiyadorlarining yillik va navbatdan tashqari umumiy yig'ilishlarini chaqirish, qonunchilikda ko'rsatilgan holatlar bundan mustasno;
- aksiyadorlar umumiy yig'ilishining kun tartibini tayyorlash;
- aksiyadorlarning umumiy yig'ilishi o'tkaziladigan sana, vaqt va joyni;
- aksiyadorlarning Umumiy yig'ilishi o'tkazilishi haqida xabar qilish uchun Jamiyat aksiyadorlari reestrini shakllantirish sanasini belgilash;
- Ushbu Ustavning 10.6. bandidagi a) va t) qismlarida ko'rsatilgan masalalarni hal etishni aksiyadorlarning Umumiy yig'ilishiga kiritish;
- mol-mulkning bozor qiymatini belgilashni tashkil etish;
- Jamiyatning ustav fondini ko'paytirish va Jamiyat Ustaviga tegishli o'zgartirishlar kiritish to'g'risida qarorlarni qabul qilish;
- aksiyalar chiqarish to'g'risidagi qaror va emissiya risolasini tasdiqlash shuningdek avval ro'yhatdan o'tkazilgan qimmatli qog'ozlar chiqarilishlariga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish to'g'risida qaror qabul qilish;

- Approving the company's annual business plan;
- Making decisions on issuing corporate bonds, including convertible bonds;
- Deciding on issuing derivatives;
- Deciding on repurchasing the company's corporate bonds;
- Forming the company's executive body, electing (appointing) the CEO, and prematurely terminating his powers,
- Setting the salary and compensation for the CEO,
- Appointing a corporate consultant and approving the regulations governing their activities;
- Organizing the company's internal audit service, appointing its employees, approving the regulation on the internal audit service, and reviewing its reports quarterly;
- Providing recommendations on the remuneration and compensation for members/auditors of the audit commission (if any);
- Freely using any document related to the activities of the executive body and obtaining from the executive body the documents necessary for performing the tasks assigned to the Supervisory Board by the shareholders;
- Using the company's reserve and other funds (except for the dividend distribution fund);
- Establishing and liquidating the company's branches and representative offices, approving their regulations;
- Making decisions on major transactions in cases provided by law (if the Supervisory Board does not unanimously agree on a major transaction, it can be brought to the general meeting of shareholders for decision upon the Supervisory Board's recommendation);
- Making decisions on transactions with the company's affiliated persons in cases provided by law;
- Establishing subsidiaries and dependent companies;
- Conducting transactions related to the company's participation in commercial and non-commercial organizations in the manner prescribed by law;
- Resolving other issues within the competence of the Supervisory Board according to this Charter and current legislation.
- Aksiyalarni joylashtirish (tashkil etilgan qimmatli qog'ozlar savdolariga chiqarish) narxini belgilash;
- Auditorlik tekshiruvi o'tkazish to'g'risida (o'tkazilishi shart bo'lgan auditorlik tekshiruidan tashqari), auditorlik tashkilotini va uning xizmatiga to'lanadigan xaq miqdori chegarasini belgilash to'g'risida qaror qabul qilish;
- Jamiyatning yillik biznes-rejasini tasdiqlash;
- Jamiyat tomonidan korporativ obligatsiyalar, shu jumladan aksiyalarga ayiriboshlanadigan obligatsiyalar chiqarish to'g'risida qaror qabul qilish;
- qimmatli qog'ozlarning hosilalarini chiqarish to'g'risida qaror qabul qilish;
- Jamiyatning korporativ obligatsiyalarini qaytarib sotib olish to'g'risida qaror qabul qilish;
- jamiyatning ijroiya organini tuzish, Bosh direktorni saylash (tayinlash) va uning vakolatlarini muddatidan ilgari tugatish;
- Jamiyatning Bosh direktoriga to'lanadigan haq va kompensatsiyalar miqdorini belgilash;
- korporativ maslahatchini tayinlash va uning faoliyati tartibini belgilovchi nizomni tasdiqlash;
- Jamiyatning ichki audit xizmatini tashkil etish, uning xodimlarini tayinlash va ichki audit xizmati to'g'risidagi Nizomni tasdiqlash, shuningdek har chorakda uning hisobotlarini eshitib borish;
- Jamiyat taftish komissiyasiga a'zolari/taftishchisiga (mavjud bo'lgan taqdirda) to'lanadigan haq va kompensatsiya miqdori yuzasidan tavsiyalar berish;
- Jamiyatning ijroiya organi faoliyatiga daxldor har qanday hujjatdan erkin foydalanish va ijroiya organidan Jamiyat kuzatuv kengashi zimmasiga yuklatilgan vazifalarni bajarish uchun ularni olish. Olingan hujjatlardan Jamiyat kuzatuv kengashi va uning a'zolari faqat xizmat maqsadlarida foydalanish;
- Jamiyatning zaxira fondi va boshqa fondlaridan (dividend to'lash fondidan tashqari) foydalanish;
- Jamiyatning filiallarini va vakolatxonalarini tashkil etish va tugatish ularning Nizomini tasdiqlash;
- qonunchilikda nazarda tutilgan hollarda yirik bitimlar tuzish xaqida qaror qabul qilish (yirik bitim tuzish masalasi bo'yicha Jamiyat kuzatuv kengashining yakdilligiga erishilmagan taqdirda yirik bitim tuzish to'g'risidagi masala kuzatuv kengashining qaroriga ko'ra aksiyadorlarning umumiy yig'ilishi hal qilishi uchun olib chiqilishi mumkin);
- qonunchilikda nazarda tutilgan hollarda Jamiyatning affillangan shaxslari bilan bitimlar tuzish xaqida qaror qabul qilish;

- Jamiyatning shu'ba va tobe korxonalarini tashkil etish;
  - Jamiyatning tijorat va notijorat tashkilotlardagi ishtiroki bilan bog'liq bitimlarni qonun hujjatlarida belgilangan tartibda tuzish;
  - ushbu Ustav va amaldagi qonunchilikka muvofiq Jamiyat kuzatuv kengashi vakolatlariga kiritilgan boshqa masalalarni ham hal etish.
- 11.3. Matters within the competence of the Supervisory Board cannot be delegated to the company's executive body for resolution
- Jamiyat kuzatuv kengashining vakolatlariga kiritilgan masalalar hal qilish uchun Jamiyat Ijroiya organiga o'tkazilishi mumkin emas
- 11.4. Members of the Supervisory Board are elected by the general meeting of shareholders or by the general meeting of shareholders for a one-year term. The number of Supervisory Board members consists of at least three people.
- Jamiyat kuzatuv kengashining a'zolari, amaldagi qonunchilik va mazkur Ustav asosida aksiyadorlarning umumiy yig'ilishi tomonidan yoki aksiyadorlar umumiy yig'ilishi tomonidan bir yillik muddatga saylanadilar. Jamiyat kuzatuv kengashi a'zolarining miqdori tarkibi 3 (uch) kishidan iborat.
- 11.5. Individuals elected to the Supervisory Board can be re-elected an unlimited number of times.
- Jamiyatning kuzatuv kengashi tarkibiga saylangan shaxslar cheklanmagan tarzda qayta saylanishi mumkin.
- 11.6. The Supervisory Board may include at least one independent member.
- Jamiyatning Kuzatuv kengashi tarkibiga eng kamida bir nafar mustaqil a'zo kiritilishi mumkin.
- 11.7. Independent members of the Supervisory Board cannot include:
- Jamiyat Kuzatuv kengashining mustaqil a'zolari quyidagi shaxslardan iborat bo'lishi mumkin emas:
- Individuals who have worked in the company or its affiliated persons in the last three years;
  - Shareholders owning five percent or more of the company's voting shares (directly or through affiliated persons);
  - Individuals engaged in civil-law relationships with the company's major clients or suppliers, where contracts of a certain significant value exist. In this case, those persons who have a valid contract with the amount of more than two thousand times the amount of the base calculation are recognized as major customers and major suppliers;
  - Employees of an auditing organization that provided auditing services to the company or its affiliated persons in the last three years;
  - Individuals who have been part of the Supervisory Board for six consecutive years;
  - Individuals with any agreements with the company, except for those related to performing the duties of a Supervisory Board member;
  - Close relatives or relatives by marriage of members of the management and internal control
- so'nggi uch yil ichida jamiyatda va (yoki) jamiyatning affillangan shaxslarida ishlagan shaxs;
  - jamiyat ovoz beruvchi aksiyalarining besh yoki undan ortiq foiziga egalik qiluvchi (to'g'ridan-to'g'ri va (yoki) affillangan shaxslar orqali) aksiyador;
  - jamiyatning va (yoki) uning affillangan shaxsining yirik mijosi va (yoki) yirik yetkazib beruvchisi bilan fuqarolik-huquqiy munosabatlarda bo'lgan shaxs. Bunda qaysi shaxslar bilan bazaviy hisoblash miqdorining ikki ming baravaridan ko'p bo'lgan summaga teng amaldagi shartnoma mavjud bo'lsa, o'sha shaxslar yirik mijoz va yirik yetkazib beruvchi deb e'tirof etiladi;
  - so'nggi uch yil ichida jamiyatga va (yoki) jamiyatning affillangan shaxslariga auditorlik xizmatlarini ko'rsatgan auditorlik tashkilotining xodimi;
  - ketma-ket olti yil davomida jamiyatning kuzatuv kengashi tarkibiga kirgan shaxs;
  - jamiyat va (yoki) uning affillangan shaxslari bilan biror-bir kelishuvga ega bo'lgan shaxs, bundan kuzatuv kengashi a'zosining vazifalari va funksiyalari

bodies of the company or its affiliated persons, who were members in the last three years;

– Employees of a state administration body or state-owned company;

– Individuals who do not meet the requirements set forth in the company's charter or resolutions of the general meeting of shareholders

bajarilishini ta'minlash bilan bog'liq bo'lgan kelishuvlar mustasno;

– jamiyatning boshqaruv va ichki nazorat organlarining va (yoki) uning affillangan shaxslarining a'zosi bo'lgan shaxsning yoki so'nggi uch yil ichida ularga a'zo bo'lgan shaxsning yaqin qarindoshi yoki quda tomondan qarindoshi (ota-onasi, aka-ukalari, opa-singillari, o'g'illari, qizlari, eri (xotini), shuningdek erining (xotinining) ota-onasi, aka-ukalari, opa-singillari va farzandlari) bo'lgan shaxs;

– davlat boshqaruvi organining yoki davlat korxonasining xodimi bo'lgan shaxs;

– jamiyatning ustavida yoki aksiyadorlar umumiy yig'ilishining qarorlari bilan tasdiqlangan hujjatlarda belgilangan talablarga muvofiq bo'lmagan shaxs.

11.8. The CEO of the company cannot be elected to the Supervisory Board.

Jamiyat Bosh direktori Jamiyatning kuzatuv kengashiga saylanishi mumkin emas.

11.9. Individuals employed by the company under a labor contract (contract) cannot be members of the Supervisory Board.

Jamiyatda mehnat shartnomasi (kontrakt) bo'yicha ishlayotgan shaxslar Jamiyat kuzatuv kengashining a'zolari bo'lishi mumkin emas.

11.10. Individuals elected to the Company's Supervisory Board must meet the following requirements: they must possess higher education obtained from higher education institutions in the Republic of Uzbekistan or foreign countries, which is recognized as equivalent to higher education in the Republic of Uzbekistan in accordance with legislation.

Jamiyatning Kuzatuv kengashi tarkibiga saylangan shaxslar quyidagi talablarga mos kelishi va: O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim muassasalarida olingan oliy ma'lumotga yoki xorijiy davlatlarning ta'lim muassasalarida olingan xamda qonun hujjatlariga muvofiq, O'zbekiston Respublikasidagi oliy ma'lumotga ekvivalent deb tan olingan oliy ma'lumotga ega bo'lishi lozim.

11.11. The election of members to the Company's Supervisory Board is carried out through cumulative voting.

Jamiyatning kuzatuv kengashi a'zolari saylovi kumulyativ ovoz berish orqali amalga oshiriladi.

11.12. In cumulative voting, each shareholder multiplies the number of votes they hold by the number of independent members and other members required to be elected to the Supervisory Board. Shareholders may then allocate these votes entirely to one candidate or distribute them among two or more candidates. Candidates who receive the most votes are considered elected to the Supervisory Board.

Kumulyativ ovoz berishda har bir aksiyadorga tegishli ovozlar soni jamiyatning kuzatuv kengashiga saylanishi kerak bo'lgan mustaqil a'zolar va boshqa a'zolar soniga alohida ko'paytiriladi hamda aksiyador shu tariqa olingan ovozlarni bitta nomzodga to'liq berishga yoki ikki va undan ortiq nomzodlar o'rtasida taqsimlashga haqli. Eng ko'p ovoz to'plagan nomzodlar jamiyat Kuzatuv kengashining tarkibiga saylangan deb hisoblanadi.

11.13. The Chairperson of the Supervisory Board is elected by the Board members from among themselves by a majority of votes relative to the total number of Board members.

Jamiyat kuzatuv kengashining raisi kuzatuv kengash a'zolari tomonidan ularning o'zlari orasidan Jamiyat kuzatuv kengashi a'zolari umumiy soniga nisbatan ko'pchilik ovoz bilan saylanadi.



|   |   |
|---|---|
| 11.14. The Supervisory Board has the right to re-elect its Chairperson by a majority vote of all members.   | Jamiyat kuzatuv kengashi o'z raisini jami a'zolarining ko'pchilik ovozi bilan qayta saylashga haqlidir.   |
| 11.15. The Chairperson of the Supervisory Board organizes its work, calls and presides over the meetings, ensures the protocol of the meeting is maintained, and chairs the general meetings of shareholders.                 | Jamiyat kuzatuv kengashining raisi uning ishini tashkil etadi, kuzatuv kengashi majlislarini chaqiradi va ularda raislik qiladi, majlisda bayonnoma yuritilishini tashkil etadi va aksiyadorlar umumiy yig'ilishlarida raislik qiladi.  |
| 11.16. In the absence of the Chairperson of the Supervisory Board, one of the Board members temporarily performs the duties of the Chairperson.   | Jamiyat kuzatuv kengashi raisi yo'q bo'lgan hollarda uning vazifasini kuzatuv kengash a'zolaridan biri bajarib turadi.  |
| 11.17. The Supervisory Board meetings are called by its Chairperson at least once every quarter. Extraordinary meetings of the Supervisory Board may be convened at the initiative of the Chairperson or upon the request of: | Jamiyat kuzatuv kengashi majlislari uning raisi tomonidan har chorakda kamida bir marta chaqiriladi. Jamiyat kuzatuv kengashining navbatdan tashqari majlislari kuzatuv kengash raisining tashabbusi bilan yoki qo'yidagilar talabiga ko'ra chaqiriladi:  |
| 11.17.1. Members of the Supervisory Board;  | Kuzatuv kengash a'zolarining;   |
| 11.17.2. Member(s) of the Audit Commission (if any);  | Taftish komissiyasi a'zosi (mavjud bo'lgan taqdirda);   |
| 11.17.3. The CEO of the Company;  | Jamiyat Bosh direktorining;   |
| 11.17.4. Head of the internal audit service;  | ichki audit hizmati boshlig'ining;  |
| 11.17.5. Other cases specified by law and this Charter.   | qonunchilikda va mazkur Ustavda ko'rsatilgan boshqa hollarda.   |
| 11.18. A quorum for the Supervisory Board meetings is constituted by the presence of 75% of the elected members.  | Jamiyat kuzatuv kengashining majlisini o'tkazish uchun kvorum, kuzatuv kengashiga saylangan a'zolar sonining 75 foizini tashkil qiladi.   |
| 11.19. Decisions of the Supervisory Board on issues put to a vote are made by a majority of the votes of those present, unless otherwise specified by law or this Charter. Each member of the Supervisory Board has one vote. | Ovozga qo'yilgan masala bo'yicha Jamiyat kuzatuv kengashining qarorlari, agar qonun hujjatlarida va ushbu Ustavda boshqacha qoidalar belgilanmagan bo'lsa, majlisda hozir bo'lganlarning ko'pchilik ovozi bilan qabul qilinadi. Jamiyat kuzatuv kengashining majlisida masalalar hal etilayotganda kuzatuv kengashning har bir a'zosi bitta ovozga ega. |
| 11.20. A member of the Supervisory Board cannot delegate their vote to another Board member.  | Jamiyat kuzatuv kengashining bir a'zosi o'z ovozini kuzatuv kengashning boshqa a'zosiga berishiga haqli emas.   |
| 11.21. In case of a tie in votes, the vote of the Chairperson of the Supervisory Board is decisive.   | Jamiyat kuzatuv kengashi a'zolarining ovozlari teng bo'lgan holda, Jamiyat kuzatuv kengashi raisining ovozi hal etuvchi hisoblanadi.  |

- 11.22. The decisions of the Supervisory Board can be made available to the Company's shareholders. Shareholders may also acquaint themselves with other documents of the Company as provided by law. Jamiyat kuzatuv kengashi qarorlari bilan Jamiyat aksiyadorlari tanishtirilishi mumkin. Jamiyat aksiyadorlari Jamiyatning qonun hujjatlarida nazarda tutilgan boshqa hujjatlari bilan ham tanishishlari mumkin.
- 11.23. Decisions of the Supervisory Board can be made unanimously by written consent (inquiry) of all its members without a meeting. Jamiyat kuzatuv kengashining qarorlari sirtidan ovoz berish yo'li bilan (so'rov yo'li bilan) Jamiyat kuzatuv kengashining barcha a'zolari tomonidan bir ovozdan qabul qilinishi mumkin.
- 11.24. Minutes are taken at the Supervisory Board meetings. The minutes should be prepared no later than ten days after the meeting. Jamiyat kuzatuv kengashining majlisida bayonnomasi yuritiladi. kuzatuv kengashi majlisining bayonnomasi majlis o'tkazilganidan so'ng 10 kundan kechiktirmay tuziladi.
- 11.25. The minutes of the Supervisory Board meeting are signed by the members participating in the meeting, who are responsible for the accurate recording of the meeting. Jamiyat kuzatuv kengashi majlisining bayonnomasi majlisda ishtirok etayotgan Jamiyat kuzatuv kengashi a'zolari tomonidan imzolaniadi, ular majlis bayonnomasi to'g'ri rasmiylashtirilishi uchun javobgar bo'ladi.
- 11.26. The minutes of the Supervisory Board meeting are submitted to the executive body of the Company for implementation on the day they are signed. If the Supervisory Board decides to call a general meeting of shareholders, this decision is submitted to the Company's executive body on the day the Supervisory Board meeting is held. Jamiyat kuzatuv kengashi majlisining bayonnomasi imzolangan kuni Jamiyatning ijroiya organiga ijro etish uchun topshiriladi. Kuzatuv kengashi aksiyadorlarning umumiy yig'ilishini chaqirish to'g'risida qaror qabul qilgan taqdirda mazkur qaror haqidagi axborot Jamiyatning ijroiya organiga kuzatuv kengashining majlisi o'tkaziladigan kuni topshiriladi.
- 11.27. By decision of the general meeting of shareholders, members of the Supervisory Board may be remunerated for performing their duties and reimbursed for expenses related to performing their functions as a Board member. The amount of such compensation and reimbursement is determined by the general meeting of shareholders. Aksiyadorlar umumiy yig'ilishining qaroriga ko'ra, Jamiyat kuzatuv kengashi a'zolariga ular o'z vazifalarini bajarib turgan davrda haq to'lanishi va kuzatuv kengashining a'zosi vazifasini bajarish bilan bog'liq xarajatlari qoplanishi mumkin. Bunday haq va to'lovlarning miqdori aksiyadorlar umumiy yig'ilishi qarori bilan belgilab qo'yiladi.
- 11.28. Members of the Supervisory Board must act in the interests of the Company while exercising their rights and fulfilling their duties. Jamiyat kuzatuv kengashining a'zolari, o'z huquqlarini amalga oshirishda va o'z burchlarini bajarishda Jamiyat manfaatlarini ko'zlab ish tutishlari lozim.
- 11.29. Members of the Supervisory Board are responsible for not duly fulfilling their obligations towards the Company and its shareholders in accordance with legislation and this Charter. Jamiyat kuzatuv kengashi a'zolari Jamiyat va uning aksiyadorlari oldidagi o'z majburiyatlarini zarur darajada bajarmaganliklari uchun qonun hujjatlariga va mazkur Ustavga muvofiq javobgar bo'ladilar.
- 11.30. Members of the Supervisory Board who did not participate in voting or voted against a decision that caused damage to the Company are not liable. Jamiyatga zarar yetkazilishiga sabab bo'lgan qarorga ovoz berishda ishtirok etmagan yoki ushbu qarorga qarshi ovoz bergan Jamiyat kuzatuv kengashi a'zolari javobgar bo'lmaydi.

11.31. The requirements for individuals to be elected to the Supervisory Board are specified in the "Regulation on the Supervisory Board of the Company," approved by the general meeting of shareholders.

Jamiyat kuzatuv kengashi tarkibiga saylanadigan shaxslarga nisbatan qo'yiladigan talablar aksiyadorlar umumiy yig'ilishida tasdiqlangan "Jamiyat kuzatuv kengashi tug'risidagi Nizomi" da belgilab qo'yiladi.

## 12. THE COMPANY'S EXECUTIVE BODY

## JAMIYATNING IJROIYA ORGANI

12.1. The day-to-day management of the company is carried out by the sole executive body (CEO).

Jamiyatning kundalik faoliyatiga rahbarlik yakkaboshchilik asosidagi ijroiya organi (Bosh direktor) tomonidan amalga oshiriladi.

12.2. The CEO has the authority to resolve all issues except those that fall within the competencies of the general meeting of shareholders and the Supervisory Board.

Jamiyat Bosh direktori aksiyadorlar umumiy yig'ilishi va Jamiyat kuzatuv kengashi vakolatlariga kiritilgan masalalardan tashqari barcha masalalarni hal qilish vakolatiga ega.

12.3. The CEO manages the company's daily operations and provides operational leadership in accordance with the laws of the Republic of Uzbekistan, the company's charter, and the decisions of the General Meeting of Shareholders and the Supervisory Board.

Bosh direktor jamiyatning kundalik faoliyatini boshqaradi va operativ rahbarlikni O'zbekiston Respublikasi qonunchiligi, Jamiyat Ustavi, Aksiyadorlar umumiy yig'ilishi va Kuzatuv kengashining qarorlariga muvofiq amalga oshiradi.

12.4. The CEO ensures the implementation of decisions made by the general meeting of shareholders and the Supervisory Board.

Bosh direktor aksiyadorlar umumiy yig'ilishining va jamiyat Kuzatuv kengashining qarorlari bajarilishini tashkil etadi.

12.5. The CEO reports to the General Meeting of Shareholders and the Supervisory Board.

Bosh direktor Aksiyadorlar umumiy yig'ilishi va Kuzatuv kengashiga hisobot beradi.

12.6. The selection of the CEO is conducted based on a competition that may involve foreign managers, organized by the Supervisory Board. The employment contract with the CEO is signed on behalf of the company by the Chairperson of the Supervisory Board.

Bosh direktor Kuzatuv kengashi tomonidan tanlov asosida chet ellik menejerlar ishtirok etishi mumkin bo'lgan tanlov bo'yicha saralash asosida amalga oshiriladi. Bosh direktor bilan mehnat shartnomasini Jamiyat nomidan Kuzatuv kengashi raisi imzolaydi.

12.7. The CEO's salary is directly linked to the effectiveness of the company's operations and is determined in the employment contract.

Bosh direktorga to'lanadigan xaq miqdori Jamiyat faoliyatining samaradorligiga tug'ridan-tug'ri bog'lik bo'lib, mehnat shartnomasida belgilanadi.

12.8. The CEO's responsibilities include:

Bosh direktorning vakolatlariga quyidagilar kiradi:

12.8.1. Leading the company's operations in accordance with this Charter and the powers granted by the Supervisory Board;

mazkur Ustav va Kuzatuv kengashi tomonidan o'ziga berilgan vakolatlarga muvofiq Jamiyatning ishiga rahbarlik qilish;

12.8.2. Participating in the work of the company with an advisory vote, with the consent of the Supervisory Board;

Jamiyat kuzatuv kengashining roziligiga ko'ra uning ishida maslahat ovozi bilan ishtirok etish;

12.8.3. Representing the company without a power of attorney and protecting its interests;

Jamiyat nomidan ishonchnomasiz ish yuritish va uning manfaatlarini himoya qilish;

|  |   |
|--|---|
| 12.8.4. Concluding transactions on behalf of the company;  | Jamiyat nomidan bitimlar tuzish;  |
| 12.8.5. Appointing and dismissing heads of the company's branches and representative offices;  | Jamiyat filiallari va vakolatxonalari rahbarlarini lavozimga tayinlash va lavozimdan ozod etish;  |
| 12.8.6. Approving staff, hiring company employees, concluding and terminating employment contracts with them, applying disciplinary actions, and ensuring adherence to labor and execution discipline, | shtatlarni tasdiqlash, Jamiyat xodimlarini ishga qabul qilish, ular bilan mehnat shartnomalarini tuzish va bekor qilish, ularga nisbatan intizomiy jazo choralarini qo'llash, xodimlar tomonidan mehnat va ijro intizomini saqlab turishini ta'minlash; |
| 12.8.7. Issuing powers of attorney in accordance with current legislation;   | Jamiyat nomidan amaldagi qonunchilikka asosan ishonchnomalarni berish;  |
| 12.8.8. Issuing orders and instructions mandatory for all company employees;   | Jamiyatning barcha xodimlari tomonidan bajarilishi majburiy bo'lgan buyruq va farmoyishlar chiqarish va ko'rsatmalar berish;  |
| 12.8.9. Ensuring the company's effective and stable operation within his powers;   | o'z vakolatlari doirasida Jamiyatning samarali va barqaror ishlashini ta'minlagan holda uning joriy faoliyatiga rahbarlik qilish;   |
| 12.8.10. Managing the company's assets and funds within his powers;  | o'z vakolatlari doirasida jamiyatning mol – mulki va pul mablag'larini tassaruf etish;  |
| 12.8.11. Leading the development of the company's development programs and business plans, organizing their implementation, and overseeing their execution;  | jamiyatni rivojlantirish dasturlari va biznes-rejalari ishlab chiqilishiga rahbarlik qilish, ularni tashkil etish va bajarilishini nazorat qilish;  |
| 12.8.12. Issuing decisions, orders, and instructions obligatory for the company's branches and representative offices;   | Jamiyat vakolatxonalari va filiallari uchun majburiy bo'lgan qaror, buyruq va farmoyishlar chiqarish;   |
| 12.8.13. Organizing the implementation of decisions made by the General Meeting of Shareholders and the Supervisory Board;   | Aksiyadorlar umumiy yig'ilishi va Kuzatuv kengashi qarorlarining bajarilishini tashkil etish;   |
| 12.8.14. Complying with current legislation and the company's internal documents.  | amaldagi qonun xujjatlariga xamda Jamiyat ichki xujjatlariga rioya qilish.  |
| 12.9. The CEO may hold positions in the management bodies of other organizations concurrently only with the consent of the Supervisory Board.  | Jamiyatning bosh direktori vazifalarini boshqa tashkilotlarning boshqaruv organlaridagi lavozim bilan birgalikda egallab turishga faqat jamiyat Kuzatuv kengashining roziligi bilan yo'l qo'yiladi.   |
| 12.10. The CEO's rights are specified in the employment contract.  | Bosh direktorning huquqlari u bilan tuzilgan mehnat shartnomasida belgilanadi.  |
| 12.11. The CEO's obligations:  | Bosh direktorning majburiyatlari:   |

|  |   |
|--|---|
| 12.11.1. Ensuring the fulfillment of the contractual obligations of the company;   | Jamiyatning shartnoma majburiyatlarining bajarilishini ta'minlash;  |
| 12.11.2. Ensuring the execution of decisions made by the company's shareholders and the Supervisory Board;   | Jamiyatning aksiyadorlari va Kuzatuv kengashi tomonidan qabul qilingan qarorlarning ijrosini ta'minlash;  |
| 12.11.3. organization, necessary condition and reliability of accounting and reporting in the Company in accordance with the law, annual reports and other financial reports are submitted to relevant authorities on time, as well as information on the Company's activities sent to shareholders, creditors and other recipients provide; | qonunchilikka muvofiq Jamiyatda buxgalteriya hisobi va hisobotning tashkil etilishi, zarur holati va Ishonchlilikini, yillik hisobotlar va boshqa moliyaviy hisobotlar tegishli organlarga o'z vaqtida taqdim etilishini, shuningdek aksiyadorlarga, kreditorlarga va boshqa oluvchilarga yuboriladigan Jamiyat faoliyati to'g'risidagi ma'lumotlar taqdim etilishini ta'minlash; |
| 12.11.4. Ensuring compliance with the requirements of legal documents in the activities of the society;  | Jamiyat faoliyatida qonun xujjatlari talablariga rioya qilinishini ta'minlash;  |
| 12.11.5. Providing the company with qualified personnel, taking measures to best use the knowledge, skills, experience and abilities of the company's employees;   | Jamiyatni malakali kadrlar bilan ta'minlash, Jamiyat xodimlarining bilimi, malakasi, tajribasi va qobiliyatlaridan eng yaxshi foydalanish choralarini ko'rish;  |
| 12.11.6. Ensuring compliance with social guarantees of society employees and protection of their work;   | Jamiyat xodimlarining ijtimoiy kafolatlariga rioya qilinishini va ular mehnatini muhofaza qilishni ta'minlash;  |
| 12.11.7. Keeping information that constitutes a commercial secret of the company. The list of information constituting the commercial secret of the Company is determined by the CEO of the Company;   | Jamiyatning tijorat sirini tashkil etuvchi axborotlarni saqlash. Jamiyatning tijorat sirini tashkil etuvchi ma'lumotlar ro'yxati Jamiyat Bosh direktori tomonidan belgilanadi;  |
| 12.11.8. ensure that the state statistics report is submitted to the relevant bodies in full and on time;  | davlat statistika hisoboti tegishli organlarga to'liq va o'z vaqtida taqdim etilishini ta'minlash;  |
| 12.11.9. Providing documents on the financial and economic activities of the Company at the request of the Company's supervisory board, audit commission/inspector (if any) or the Company's auditor;  | Jamiyatning moliya-xo'jalik faoliyati to'g'risidagi hujjatlar Jamiyatning kuzatuv kengashi, taftish komissiyasi/taftishchisi (mavjud bo'lgan taqdirda) yoki Jamiyat auditori talabiga ko'ra taqdim etish;   |
| 12.11.10. The CEO of the Company may have other rights (authorities) and obligations in accordance with the law, this Charter and other normative documents of the Society.  | Jamiyatning Bosh direktori, qonunchilik, ushbu Ustav va Jamiyatning boshqa me'yoriy xujjatlariga muvofiq boshqa xuquq (vakolat) va majburiyatlarga ham ega bo'lishi mumkin.   |
| 12.12. The CEO's obligations are also specified in the employment contract.  | Bosh direktorning majburiyatlari u bilan tuzilgan mehnat shartnomasida xam belgilanadi.   |

- 12.13. In exercising his rights and fulfilling his duties, the CEO must act in the interests of the company. Bosh direktor o'z huquqlarini amalga oshirishda va o'z majburiyatlarini bajarishda Jamiyat manfaatlarini ko'zlab ish tutishi lozim.
- 12.14. The CEO is accountable to the company in accordance with the law and this Charter. Bosh direktor qonun xujjatlariga va ushbu Ustavga muvofiq Jamiyat oldida javobgardir.
- 12.15. The employment contract with the CEO can be terminated early by the Supervisory Board if the CEO grossly violates the terms of this Charter or the employment contract, fails to meet the approved indicators of the company's business plan, or causes damages to the company due to his actions or inactions. Bosh direktor tomonidan ushbu Ustav va mexnat shartnomasi shartlari qo'pol ravishda buzilsa, yoxud Jamiyat biznes-rejasining tasdiqlangan ko'rsatgichlarni bajarilishi buzilgan hollarda va o'zining harakatlari (harakatsizligi) natijasida Jamiyatga keltirilgan zararlari sababli u bilan tuzilgan shartnoma Jamiyat kuzatuv kengashi tomonidan muddatidan ilgari bekor qilinishi mumkin.
- 12.16. In case of early termination of the CEO's powers, his duties can be temporarily performed by a person appointed by the decision of the Supervisory Board. Jamiyat Bosh direktorining vakolatlari muddatidan ilgari tugatilgan holda, uning vazifasini vaqtincha bajarishni Jamiyat kuzatuv kengashining qaroriga muvofiq tayinlangan shaxs olib borishi mumkin.
- 12.17. The CEO operates based on the "Regulation on the Executive Body" approved by the General Meeting of Shareholders and in accordance with this Charter. Bosh direktor mazkur Ustav va Aksiyadorlar umumiy yig'ilishi tomonidan tasdiqlangan «Ijroiya organi tug'risida»gi Nizom asosida ish olib boradi.

### 13. REORGANIZATION AND LIQUIDATION OF THE COMPANY

### JAMIYATNI QAYTA TASHKIL ETISH VA TUGATISH

- 13.1. The reorganization (including merging, joining, dividing, segregating, and transforming) and liquidation of the company are carried out based on the decision of the general meeting of shareholders, as well as in cases and according to the procedures specified by the current legislation of the Republic of Uzbekistan. 13.1. Jamiyatni qayta tashkil etish (jumladan: qo'shib yuborish, qo'shib olish, bo'lish, ajratib chiqarish va o'zgartirish) va tugatish aksiyadorlar umumiy yig'ilishining qarori asosida, shuningdek, O'zbekiston Respublikasi amaldagi qonunchiligi bilan belgilangan hollarda va tartibda amalga oshiriladi.
- 13.2. The reorganization of the company is carried out in accordance with Articles 49 to 52 of the Civil Code of the Republic of Uzbekistan and Articles 92 to 97 of the Law on Joint Stock Companies and Protection of Shareholders' Rights. Jamiyatni qayta tashkil etish O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik Kodeksining 49 – 52 moddalari, "Aksiyadorlik jamiyatlari va aksiyadorlarning huquqlarini himoya qilish to'g'risida"gi Qonunning 92 – 97 moddalariga muvofiq amalga oshiriladi.
- 13.3. The liquidation of the company leads to the termination of the company's activities without transferring its rights and obligations to other persons by legal succession. Jamiyatning tugatilishi huquq va majburiyatlarni huquqiy vorislik tartibida boshqa shaxslarga o'tkazmagan holda jamiyat faoliyatini tugatishga sabab bo'ladi.
- 13.4. The company may be liquidated in the following cases: Jamiyat quyidagi hollarda tugatiladi:
- 13.4.1. According to the decision of the general meeting of shareholders; aksiyadorlar umumiy yig'ilishining qaroriga muvofiq;

13.4.2. Based on a court decision in accordance with the current legislation of the Republic of Uzbekistan;  
13.4.3. On other grounds provided by the current legislation.

O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonun xujjatlariga muvofiq sud qaroriga asosan;  
amaldagi qonun xujjatlarida nazarda tutilgan boshqa sabablarga asosan.

13.5. The procedure for the liquidation of the company is carried out in accordance with Articles 53 to 56 of the Civil Code of the Republic of Uzbekistan, as well as Articles 98 to 101 of the Law on Joint Stock Companies and Protection of Shareholders' Rights.

Jamiyatni tugatish tartibi O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik Kodeksining 53 – 56 moddalari, shuningdek "Aksiyadorlik jamiyatlari va aksiyadorlarning huquqlarini himoya qilish to'g'risida" qonunning 98 – 101 moddalariga muvofiq amalga oshiriladi.

#### 14. OTHER CONDITIONS

#### BOSHQA XOLATLAR

14.1. All amendments and additions to the Charter of the Company, made by the general meeting of shareholders of the Company and within the scope of its powers by the Supervisory Board of the Company, shall be registered in the relevant state body of the Republic of Uzbekistan in the manner prescribed.

Jamiyat aksiyadorlarining umumiy yig'ilishi va o'z vakolatlari doirasida Jamiyat kuzatuv kengashi tomonidan Jamiyat Ustaviga kiritiladigan barcha o'zgartirish va qo'shimchalar O'zbekiston Respublikasining tegishli Davlat organida belgilangan tartibda ro'yxatga olinadi.

14.2. Amendments and additions to the Charter of the Company, or a new edition of the Charter, shall come into force for third parties from the date of their state registration, and in cases stipulated by legislation, from the moment the state registration authority is notified.

Jamiyat Ustaviga kiritilgan o'zgartirishlar va qo'shimchalar yoki Jamiyatning yangi tahrirdagi ustavi uchinchi shaxslar uchun ular davlat ro'yxatidan o'tkazilgan paytdan boshlab, qonunchilikda belgilangan hollarda esa davlat ro'yxatidan o'tkazuvchi organ xabardor etilgan paytdan e'tiboran kuchga kiradi.

14.3. If any provision of this Charter becomes invalid, it does not serve as a reason to invalidate other provisions.

Agar mazkur Ustavni biron bir qoidasi o'z kuchini yo'qotgan bo'lsa, bu qoida boshqa qoidalarni to'xtatish uchun sabab bo'lmaydi.

14.4. If the legislative acts of the Republic of Uzbekistan establish rules different from those provided in this Charter, the rules of the current legislation of the Republic of Uzbekistan shall apply.

Agar O'zbekiston Respublikasining qonunchilik xujjatlarida mazkur ustavda nazarda tutilganidan boshqacha qoidalar belgilangan bo'lsa, O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonunchilik xujjatlari qoidalari qo'llaniladi.

14.5. All cases not provided for in the Charter of the Company shall be regulated in accordance with the current legislation of the Republic of Uzbekistan.

Jamiyat Ustavida ko'zda tutilmagan barcha xolatlar O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonunchiligiga muvofiq tartibga solinadi.

«CLICK» AJ  
Bosh direktori

CEO of "CLICK" JSC



Rustamov U.Sh.